



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil
2-mart
payshanba

№ 9 (4599)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

FORUM



Ayol qadri, inson qadri
ulug'langan yurtda tinchlik
va farovonlik, ahillik va baraka
albatta barqaror bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

AYOL — MEHR-SADOQAT VA TARAQQIYOT TIMSOLI

Bahoriy nasimlar
kezayotgan ayni
pallalarda qadim
va hamisha
navqiron Samarqand
yana bir katta tadbirga
mezbonlik qildi. Ya'ni,
joriy yilning 27–28-fevral
kunlari Samarqand
shahrida «Ayol – mehr-
sadoqat va taraqqiyot
timsoli» shiori ostida
Ichki ishlar organlari
xotin-qizlari II Respublika
forumi bo'lib o'tdi.

(Davomi 8–9-betlarda.)



ILK QISHLOQ MILITSIYA TAYANCH PUNKTIDA MUZEY

Muzeylar o'tmish va kelajakni bog'lovchi ko'priklarni hisoblanadi. Shu bois muzeyga tashrif buyurganingizda u yerdagi eksponatlarni ko'rishingiz bilan o'qituvchi tarix ko'z oldingizda gavdalanadi. Mamlakatimizda tarixdan hikoya qiluvchi ana shunday muzeylar soni yana bittaga ko'paydi.



Toshkent viloyatining Yuqorichirchiq tumanida sobiq ittifoqda ilk bor tashkil etilgan qishloq militsiya tayanch punkti binosi o'rnida mo'jazgina muzey ish boshladi. Muzeyda ichki ishlar organlarida ko'p yillar fidokorona xizmat qilgan, hozirda 90 yoshni qarshilagan iste'fodagi mayor Sabridin Nosirovning xizmat faoliyati davomida foydalangan anjomlar, hujjatlar va boshqa tarixiy ashyolardan iborat eksponatlar jamlangan.

(Davomi 2-betda.)

ILK QISHLOQ MILITSIYA TAYANCH PUNKTIDA MUZEY

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Sabriddin Nosirov dastlab, 26 yoshida yollanma xodim sifatida ichki ishlar organiga xizmatga kiradi. Keyinchalik Toshkent oliy militsiya maktabini sirdan tamomlaydi va qishloq militsiya tayanch punkti uchastka noziri etib tayinlanadi.

Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, muzey binosi 1962-yilda qurilgan bo'lib, undan dastlab tikuv sexi, so'ngra pochta bo'limi sifatida foydalanib kelingan. 1971-yilda esa bu yerda O'zbekiston tarixidagi ichki ishlar organining birinchi mahalliy idorasi – qishloq militsiya tayanch punkti ish boshlaydi. O'sha vaqtda Moskvadagi matbuot nashrlaridan birida ushbu qishloq militsiya tayanch punkti va uchastka noziri Sabriddin Nosirovning xizmat faoliyati haqida maqola chop etiladi.

Mazkur militsiya tayanch punktiga o'z vaqtida dunyoning 11 mamlakatidan davlat rahbarlari va oliy martabali mehmonlar, jumladan, Pokiston Prezidenti Muhammad Ayyubxon, Hindiston Bosh vaziri La'l Bahodir Shastri, Shimoliy Koreya Prezidenti Kim Chen Ir,



Vyetnam Prezidenti Xo Shi Min tashrif buyurgan. Ular orasida birinchi kosmonavt Yuriy Gagarin ham bor.

Muzeyning tantanali ochilish marosimida Ichki ishlar vazirligi va Toshkent viloyati IIBB rahbariyati, faxriy ustozlar, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi. Tadbir davomida Sabriddin Nosirov yig'ilganlarga sohadagi faoliyati haqida so'zlab, birinchi militsiya tayanch punktini muzey sifatida ochib berdi.

– «Agar yoshligingga qaytsang, kim bo'lib ishlaysan?» deb so'rasalar, men yana oddiy uchastka noziri bo'lib ishlayman, deb javob beraman, chunki bu – xalq xizmati, – deydi otaxon mamnuniyat bilan.



Ko'rik-tanlov

BILIM VA TAFAKKUR SOHIBLARI TAQDIRLANDI

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida ichki ishlar organlarida o'tkazilgan «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Dastlab yosh toifasiga qarab, IIV akademik litseylarining 14 nafar o'quvchisi hamda ichki ishlar organlarining 17 nafar xodimi va harbiy xizmatchi saralab olindi. Joriy yilning 22-fevral kuni IIV Akademiyasining Axborot-resurs markazida litsey o'quvchilari o'rtasida tanlovning barcha bosqichi o'tkazildi. 23-fevral kuni 20–30 yoshli xodimlar va harbiy xizmatchilar o'rtasida tanlovning birinchi bosqichi o'tkazildi va qolgan ikki bosqichi esa Yoshlar ijod saroyida bo'lib o'tdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 15–19 yoshli ishtirokchilar o'rtasida birinchi o'rinni IIV Akademiyasi 1-o'quv kursi kursanti Kamronbek Ismoilov qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'ringa IIV Samarqand akademik litseyi o'quvchisi Sevinch Obriyeva, uchinchi o'ringa 2-sonli Toshkent akademik litseyi o'quvchisi Javohir



Muhitov sazovor bo'ldi. G'oliblar diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

20–30 yoshli ishtirokchilar o'rtasida birinchi o'rinni egallagan Toshkent viloyati IIBB YHXB umumta'lim va o'rta ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish guruhi katta inspektori, kapitan Azamat Ahmatovga I darajali diplom va 30 million so'm pul mukofoti, ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan IIV Akademiyasi Tezkor-qidiruv faoliyati kafedrasida o'qituvchisi, kapitan Odilbek O'rinovga II darajali diplom

Sabriddin Nosirovning o'g'li Aziz va qizi Irina hozirda tumanning «Sultonrovot» mahallasida istiqomat qiladi. Ular yurt osoyishtaligi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilgan insonning farzandi ekanidan faxrlanishadi.

– Muzeydan o'rin olgan fotosuratlar, ovoz kuchaytirgich, hujjatlar namunalari, Sabriddin otaning erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi guvohnoma, medal va boshqa xizmatda foydalanilgan anjomlar yoshlarda katta taassurot qoldirdi, – deydi Toshkent viloyati IIBB HPB muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, kapitan Jo'rabek To'raxonov. – O'sha vaqtda tumanda 3 nafar uchastka noziri bo'lgan. S.Nosirov 17 ta qishloq osoyishtaligini ta'minlashga mas'ul sanalgan. Bugungi kunda iste'fodagi mayor Sabriddin Nosirovning xonadoniga ichki ishlar organlari xodimlari, xususan, xizmatni endigina boshlagan yoshlar tez-tez qadam ranjida qilib, suhbatlarini olishga intiladi.

T.Xvan nomidagi mahallada o'zbek, qozoq, tojik, arman, koreys, rus, dungan, qoraqalpoq singari o'ndan ortiq millat vakillari ahillikda istiqomat qilib keladi. Profilaktika katta inspektori, katta leytenant Dias Azimbayevning aytishicha, «yashil hudud»ga aylangan mahallada jinoyatchilikning oldini olishda hokimiyat va jamoatchilik vakillari bilan o'rnatilgan mustahkam aloqa o'z samarasini bermoqda.

O'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

TAYINLANDILAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-fevraldagi qaroriga asosan



polkovnik RAHMONOV Shavkat Navruzovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari – Tezkor-qidiruv departamenti boshlig'i lavozimiga.

Ichki ishlar vazirining shaxsiy tarkib bo'yicha buyrug'iga asosan:



polkovnik ALIYEV Shuxrat Xasanovich

– Namangan viloyati IIB boshlig'i lavozimiga.



polkovnik MIRALIMOV Mirjamol Yuldashevich
– Buxoro viloyati IIB boshlig'i lavozimiga.

hozir bo'lganlar kitobga berilgan bunday ta'rif naqadar to'g'ri ekaniga yana bir karra ishonch qilishdi, deb o'ylayman. Fursatdan foydalanib xodimlarning kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini rag'batlantirib borayotgan vazirlik rahbariyatiga minnatdorlik bildirdim.

Tadbir yakunida Vatan, kitob va do'stlikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar barchada katta taassurot qoldirdi.

Sherzod ABDUSAMADOV,
«Postda» muxbiri.



Соҳамиз маликалари

ҲАМ АЁЛ, ҲАМ ОСОЙИШТАЛИК ПОСБОНИ

Бугун ички ишлар органларида хизмат қилаётган хотин-қизлар сони тобора ортиб борапти. Эътиборлиси, улар эл осойишталиги йўлида фидокорона хизмат қилмоқда. «Фидойи аёл ходима» кўрик-танловининг Сирдарё вилояти босқичи ғолиблари билан суҳбатимиз асносида бунга яна бир бор амин бўлдик.



Муқаддас ЎРОЛОВА,
вилоят ИИБ Молиявий
таъминот хизмати бухгалтери,
кичик сержант:

— Оиламиз билан ички ишлар органлари ходимларимиз. Дадам Мирзаобод тумани ИИБ ЙХХБда катта инспектор лавозимида хизмат қилган. Онам вилоят ИИБга қарашли МТТда тарбиячи бўлиб фаолият юритган. Турмуш ўртоғим Зафар Ўролов ИИБ Пробаця хизматида бош инспектор лавозимида хизмат қилади. Ўзим эса қарийб йигирма йилдирки, Сирдарё вилояти ИИБ Молиявий таъминот хизматида фаолият кўрсатиб келаман. Ички ишлар органлари ходимларининг иш ҳақи, пенсияси каби маблағларининг ўз вақтида берилишини таъминлаш менинг вазифам. Касбимни севганим, атрофдагиларга ёрдам беришга доим тайёрлигимданми, кўпчиликдан раҳмат эшитаман. Бу менга руҳий қувват беради.



Сурайё ПЎЛАТОВА,
Боёвут тумани ИИБ ХҚМБ
катта инспектори, лейтенант:

— Менга ички ишлар органи ходими ҳамиша одамларга ёрдам беришга тайёр бўлиши керак, деб уқтиришган. Кимгадир ёрдамим тегиб, раҳмат эшитган кезларим кўнглимда фахр туйғуси уйғонади.

Яқинда ана шундай воқеа содир бўлди. Йўл четидан кетарканман, қарама-қарши томондан келаётган «Нексия» автомашинаси бошқарувни йўқотаётганини сезиб қолдим. Машина йўлнинг у четидан бу четига ўтиб, ёнгинамга келиб тўхтади. Қарасам, ёши катта ҳайдовчининг ранги оқариб кетган. У ҳушидан кетаётганини сездим. Оғзидан чиқаётган кўпик унинг эпилепсия касаллиги борлигини кўрсатиб турарди. Шу боис бошқарувни йўқотган. Тезда унга биринчи ёрдам кўрсатишни бошладим. Орадан бир неча дақиқа ўтгач, отахон эркин нафас ола бошладди. Унинг ҳаёти сақлаб қолинганди. Атрофга қарасам, анчагина одам тўпланибди. Уларнинг барчаси менга раҳмат айтишаётганида, бошим осмонга етди.



Камилла РЕЙИМБАЕВА,
вилоят ИИБ ЖТСБ
ППХ ходими, катта сержант:

— Вазифам оммавий тадбирларнинг тартибли ўтишини таъминлашдан иборат. Бу авваллари биров қийинчилик туғдирарди. Ҳозир одамларнинг онгу тафаккури ошган. Улар тадбирларда юриш-туриш маданиятига тобора риоя этишга ҳаракат қилишаётганини кузатиш қувонарли.

Театр томошасига боғча болалари ташриф буюрган эди. Фойедан чиқишда беш ёшлардаги болакай эътиборимни тортди. У ҳеч кимнинг кузатувисиз ташқарига йўл олаётганди. Қарга кетаяпсан, десам, боғча опам сал нарида кутаяпти, деди-да йўлида давом этди. Ишониб, ишонмадим. Бир дақиқадан сўнг ортидан чиқсам, болакай йўқ. Тарбиячи опа уни излаб юргани маълум бўлди. Бир зумда тўполон бўлиб кетди. Уни излашга тушдик. Болакай аллақачон катта йўлга чиқиб кетаётган экан. Уни излаб топганимча кўнглимдан нималар ўтганини фақат ўзим биламан, холос. Катта йўлда машиналар тинимсиз ўтиб турибди. Унга қимирламай туришни буюрдим. Болани эгасига топширганимда, қанчалик ором топганимни изоҳлаш қийин.

«Postda» мухбири **Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ** ёзиб олди.



Ёшлар – келажак бунёдкори

ФАОЛЛАР БИЛАН БАМАСЛАҲАТ

Катта лейтенант Ҳошимхўжа Усмонов тиришқоқлиги ва ташаббускорлиги тўғрисида ёш ходимларга ўрнак бўлаётгани бор гап. Ички ишлар органларида фаолият бошлаганига эндигина икки йилдан ошган бўлса-да, устозларидан ва ҳамкасбларидан касб сир-асорларини кунт билан ўрганиб кам бўлаётгани йўқ.

Яқинда у Тошкент шаҳар ИИББ миқёсида ёш ходимларнинг касб маҳорати, билим савияси ва жанговар тайёргарлигини янада ошириш мақсадида ўтказилган «Энг ватанпарвар ёш ходим» кўрик-танловида ғолибликни қўлга киритди. Тўрт босқичда бўлиб ўтган танловда «Макаров» тўппончасидан ўқ отиш, хизмат қуролларини тўлиқсиз қисмларга ажратиш ва йиғиш, қўл жанги ва тест синовларида тенгсиз деб топилди.

Қаҳрамонимиз айна пайтда Яққасарой тумани ИИОФМБ 3-сонли ИИБ профилактика инспектори лавозимида

фаолият юритмоқда. Унга тумандаги Юнус Ражабий номли маҳалла фуқаролар йиғини ҳудуди бириктирилган. У маҳалла раиси Асал Тошпўлатова ҳамда фаоллар, шунингдек, ҳамкасблари – профилактика катта инспектори, майор Муроджон Қурбонов ва



лейтенант Жаҳонгир Қурбонов билан ҳаммаслак бўлиб хизмат олиб бормоқда.

Ёш профилактика инспектори ўтган йили Ички ишлар органлари ходимлари кўни муносабати билан ўтказилган «Энг яхши профилактика инспектори» танловида республикада 1-ўринни эгаллади.

Катта лейтенант хизмат олиб бораётган ҳудудда 47 та кўп қаватли уй ва 422 та ерли ҳовли мавжуд. Маҳаллада жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш мақсадида турли тарғибот ва ташвиқот ишлари мунтазам равишда олиб борилмоқда. Муқаддам судланган ёки жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилган фуқаролар ҳамда жиноят содир этишга мойил бўлган шахсларнинг бандлигини таъминлаш, оиласига моддий ва маънавий ёрдам кўрсатиш ишларига алоҳида эътибор қаратиляпти.

Хонадонма-хонадон мулоқотлар жараёнида муаммолар ўрганилиб, мутасадди идора вакиллари билан бирга ҳал этиш чоралари кўрилмоқ-

да. Шунингдек, қаҳрамонимиз нотинч оилаларда юзага келаётган салбий ҳолатларнинг олдини олишда кўпни кўрган нуроний отахону онахонлар ва фаоллар билан бамаслаҳат иш олиб боради.

Бундан ташқари, интернет ижтимоий тармоқларида ўзининг каналини очиб, фуқаролардан тушаётган мурожаатларни ўз вақтида ҳал этишни йўлга қўйганлиги ҳам иш самарасига ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Профилактика инспекторларининг бугунги қиёфаси амалга оширилаётган ислохотлар билан ҳамоҳанг бўлиши, фаолиятида янгиликлар ва замонавийлик акс этиши тақозо этилади. Ҳар қандай янгилик ва замонавий ёндашувнинг пировард мақсади халқимиз оғирини енгил қилишга қаратилган. Буни биз катта лейтенант Ҳошимхўжа Усмонов каби ёш ва умидли осойишталик посбонлари фаолияти мисолида кўришимиз мумкин.

Сарвар **СОБИРОВ,**
«Postda» мухбири.



✓ *В центре внимания – качественное образование*

■ Республика Каракалпакстан

«АВТОРИТЕТ УЧИТЕЛЯ ВАЖЕН»

– говорит педагог с 30-летним стажем Хошруй Токаева

– Использование в образовательном процессе современных педагогических технологий побуждает учащихся свободно и активно мыслить. В этом процессе важна роль учителя, его умение интересно организовать урок, использовать нужную литературу, – говорит старший преподаватель кафедры точных наук Каракалпакского академического лицея МВД Республики Узбекистан Хошруй Токаева.

Авторитет учителя важен и в поиске ребенком своего места в жизни. Хошруй Токаева, чувствуя ответственность перед детьми, проводит уроки неординарно, используя новейшие техники и интерактивные методы обучения, ведь стремительно развивающийся мир требует самостоятельно мыслящих, конкурентоспособных и зрелых специалистов.

Героиня очерка работает в сфере педагогики более тридцати лет. Она родилась в 1968 году в Бегуническом районе. После окончания общеобразовательной школы поступила в Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами. Выйдя из стен вуза, в 1992 году начала трудовую



деятельность учителем математики и информатики в общеобразовательной школе № 10 Амударьинского района. В 2007 году перешла в Академический лицей № 2 при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. К 2017 году лицей был передан в ведение МВД Республики Узбекистан, и Х. Токаева продолжила здесь педагогическую деятельность, параллельно преподавая

в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

– Интеллектуальный потенциал человека – богатство всего общества, один из факторов, определяющих социально-экономическое развитие любой страны. Педагоги практически на всех этапах образовательного процесса должны помогать ученикам расширять кругозор, проявлять заложенные в них таланты, – говорит

Х. Токаева. – Обучение и воспитание станут более эффективными, если преподаватели начнут использовать инновационные методы и эффективно внедрять их в учебный процесс.

– Хошруй Токаева идет в ногу со временем, ее уважают коллеги и учащиеся. Многие ее выпускники уже окончили высшие учебные заведения и работают в различных сферах. Х. Токаевой удается заин-

тересовать учащихся математикой и информатикой. Именно по этим предметам при поступлении в вузы наши выпускники набирают высокие баллы, – говорит заместитель директора академического лицея по учебной работе Полат Бекмуратов. – Коллега активно занимается научной работой. С февраля 2022 года Х. Токаева трудится в качестве независимого научного сотрудника на кафедре «Прикладная математика» Каракалпакского государственного университета имени Бердаха – под руководством кандидата физико-математических наук Д. Утебаева пишет научную работу для защиты докторской диссертации (PhD). Ее статьи и тезисы на актуальные темы были опубликованы в научно-популярных журналах США, Канады, Англии, Нидерландов, Германии, России.

Героиня очерка не перестает работать над собой. Именно таким и должен быть педагог, пришедший в профессию по зову сердца.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
корреспондент
«На посту».

✓ *Женщина – воплощение преданности*



АКТИВНАЯ ВО ВСЕМ

Инспектор профилактики лейтенант Зухра Алланазарова вызывает самые добрые чувства у многих коллег и жителей вверенной территории.

Она окончила факультет иностранных языков Ургенчского государственного университета, начала службу в звании рядовой в группе «Эзгулик патрули» батальона ППС УООП СОБ УВД Хорезмской области. Следуя советам наставников, Зухра ответственно подошла к

делу обеспечения общественной безопасности, неукоснительно выполняла нормативно-правовые документы, приказы и инструкции МВД.

За короткий срок она проявила себя старательным сотрудником, самостоятельно и в срок выпол-

няющим поставленные задачи: несла ответственность за поддержание общественного порядка в местах массового скопления людей, оказывала практическую помощь туристам, предоставляла им необходимую консультацию, информировала, оказывала первую медицинскую помощь. Она завоевала уважение коллег и стала для многих примером для подражания.

После героиня очерка занимала должность инспектора группы по обеспечению общественного порядка отдела координации УОБТ УВД Хорезмской области. В настоящее время лейтенант Зухра Алланазарова служит в должности инспектора профилактики ОПП ОВД №4 УКД ОВД города Ургенча.

Девушка ответственно подходит к выполнению возложенных на нее задач, активно участвует в общественной работе. На праздничных

мероприятиях, в ходе различных встреч проявляется себя как отличный организатор.

В прошлом году она приняла участие в Республиканском смотре-конкурсе сотрудников органов внутренних дел, который проходил под лозунгом «Давайте жить свободно и благополучно в Новом Узбекистане!» А в областном этапе конкурса «Фидойи аёл ходима», проводившемся среди женщин-сотрудниц, заняла первое место и получила право на участие в республиканском этапе.

Пожелаем лейтенанту Зухре Алланазаровой, которая признана одной из самых активных сотрудниц УВД Хорезмской области, успехов в службе и покорения новых высот.

Худойберган ЖАББОРОВ,
корреспондент «Postda».
Хорезмская область.



«NURLI MASKAN»GA TASHRIF

Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov boshchiligidagi idoralararo ishchi guruh Sirdaryo viloyatida o'rganishlar asnosida viloyat IIBga birlashtirilgan Guliston tumanidagi «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida amalga oshirilgan ishlar bilan ham tanishdi.

Mazkur maktab-internat o'tgan yili qurilib, foydalanishga topshirilgan. 176 o'rinli ta'lim maskanida 91 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Ichki ishlar vaziri pedagogik jamoa va o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yosh avlodning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini yuksaltirish, ularning zamon talablariga javob beradigan kadrlar bo'lib yetishishiga e'tibor qaratdi. Bu borada ushbu ta'lim maskanining ilg'or tajribasini respublika miqyosida



ommalashtirish, shuningdek, viloyatlardagi har bir «Nurli maskan» maktab-internatlarida seminarlar tashkil etgan holda, o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish to'g'risida ko'rsatmalar berildi.

O'quvchilarning ta'lim olishi uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilash maqsadida maskanga bir nafar oftalmolog shifokor shtatini kiritish, shuningdek, tarbiyalanuvchilarda shaxsiy tomorqa xo'jaligini yuritish ko'nikmalarini shakllantirish uchun maskan hududidagi 2 sotix yerda issiqxona yaratish vazifasi topshirildi.

Maskan o'qituvchilari tomonidan Ichki ishlar vazirligi homiyligida xarid qilingan maxsus kompyuter jamlanmasida Brayl alifbosida maxsus o'quv va badiiy adabiyotlarni chop etish yo'lga qo'yilganligi alohida e'tirof etildi.

Ichki ishlar vazirligi nomidan ilg'or pedagog va o'quvchilarga sovg'alar topshirildi.

O'z muxbirimiz.



Dildora Oqbo'tayeva 1989-yil 2-dekabrda Samarqandda tug'ilgan. O'zbekiston Milliy universitetini o'zbek filologiyasi yo'nalishi bo'yicha tugatgan. Sirdaryo viloyatidagi «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

O'ZBEKISTONIM

O'zbekiston! G'ururing baland tog'lardan,
Qushlar ham ta'rifing so'rar bog'lardan,
Muqaddas atayman yoshlik chog'lardan,
Tinchliging muborak, shavkatim-shonim,
G'ururing buyukdir, O'zbekistonim.

Madhingni kuylashar barcha jo'r bo'lib,
Baralla ovoz-la baxtlarga to'lib,
Roziman, berayin yuragim yulib,
Kurashsam bir tomchi qolguncha qonim,
G'ururim, ulug'im, O'zbekistonim.

Sen uchun umrbod kurashmoq farzdir,
Nomingni ming bora kuylasam arzir,
Ulug'lab ash'orlar bitmoqlik qarzdin,
Izhorim bitilgan go'zal dostonim,
G'ururing buyukdir, O'zbekistonim.

Fidodir sen uchun bu tan-u jonim,
Har yog'ing chaman-u, bog'-u bo'stonim,
Yovlarga bosh egmas, jon-u jahonim,
Bog'laring go'zaldir, jannatmakonim,
G'ururing yuksakdir, O'zbekistonim.

* * *

Kaftim tarog'ida sochingiz taray,
Bejilov shamol ham bir zum tinsaydi.
Nogoh topolmasam bog'lardan so'ray,
Bog'larda ko'zimga gul ko'rinsaydi.

Kaftim tarog'ida sochingiz taray,
Negadir, yor, sizdan kechib bo'lmaydi.
Qaydasiz, viqorli tog'lardan so'ray,
Tog'larda ko'zimga gul ko'rinsaydi.

Kaftim tarog'ida sochingiz taray,
Xazonday tukilsam, jonim o'lmaydi.
Roziman, tun-u kun yo'lingiz qaray,
Yo'llarda ko'zimga gul ko'rinsaydi.

Kaftim tarog'ida sochingiz taray,
Siz borsiz, yuragim hijron bilmaydi.
Meni sevarmu deb, cho'llardan so'ray,
Cho'llarda ko'zimga gul ko'rinsaydi.

Kaftim tarog'ida sochingiz taray...



Dildor Saydaliyeva 1973-yil Sirdaryo tumanida tug'ilgan. Guliston davlat universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. «Ko'klam sog'inchi» nomli she'rlar to'plami chop etilgan. «Nurli maskan» ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

HAMKASBLARIMGA

Darslardan toliqish hissin sezsam-da,
Do'stlar, davrangizda bo'lgim keladi.
Yosh avlod ertasi haqida so'zlab,
Sizlar-la zavqlarga to'lgim keladi.

Umr o'taverar toshqin soy misol,
Sochlarga oq tushar, yuzlarga ajin.
Baribir saboqlar beraveramiz,
Baribir ko'zlarni tark etmas chaqin.

Burchimiz sharaf-la oqlayveramiz,
Har bir o'g'il-qizga baxsh etib qanot.
Bir kuni «yutug'im sizlar tufayli»,
Desalar, shu o'zi bizga mukofot.

BAHOR KELGACH...

Ko'klam kelganida juda yoqimli
Gullarning ifori, bahor nafasi.
Yer uzra to'shaldi qirmizi gilam,
Dillarni yayratdi bulbulning sasi.

Osmon-u falakda qanotin yozib,
Qaldirg'och tinmayin qo'shiq aytadi.
Musaffo osmonda uchgan turnalar
Yurtimni sog'inib, ortga qaytadi.

MAKTABIM

Dunyoni angladim onam tufayli,
Otam o'g'itlari saboqlar bo'ldi.
Hayot o'z zavqidan etdi bahramand,
Beg'ubor yuragim sururga to'ldi.

Bir kun quchoq ochdi ona maktabim,
Fanlar chashmasiga qadamim yetdi.
Hayot yo'llarimni munavvar aylab,
Porloq kelajakni u hadya etdi.

Mehrimni berganim ona maktabim,
Yilma-yil boyitdi tafakkurimni.
Muallimlar darsi har kun begumon,
Nurlarga to'ldirdi ong-shuurimni.

Ne baxtki, ushbu kun qutlug' maskanda,
Ustozlar safida men ham bordirman.
Istiqbol egasi – o'g'il-qizlarga
Ilmlar o'rgatib, baxtiyordirman.

Юбилейный концерт

ВОЛШЕБНОЙ МУЗЫКИ ПРЕКРАСНОЕ ЗВУЧАНИЕ



...Зал полон зрителей. Ощущается праздничная атмосфера, у всех присутствующих приподнятое настроение, ведь, судя по юбилейной дате, концерт должен быть по-особому торжественным, наполненным легкими музыкальными нотками, словно разноцветными искорками, вспыхивающими на начищенных до блеска духовых инструментах. И наши ожидания оправдались! Под овации зала музыканты Отдельного образцово-показательного оркестра МВД Республики Узбекистан занимают свои места. Художественный руководитель – начальник оркестровой службы подполковник Мукумжон Махмудов взмахивает дирижерской палочкой, и ... под звуки торжественного марша, посвященного генерал-лейтенанту Б. Х. Сираждинову, в зал входят музыканты оркестров Академии МВД, Караульных войск, Войск МВД по обеспечению безопасности в международных аэропортах и Военно-музыкального академического лицея Национальной гвардии. В едином порыве душ

и сердец оркестры играют так, что дух захватывает! Народная артистка Республики Узбекистан Галина Мельникова объявляет о начале действия. На протя-



жении многих лет Галина Витальевна ведет концертную программу, и каждый раз с долей грусти вспоминает об основателе и первом дирижере Отдельного образцово-показательного оркестра МВД полковнике Григоре Терзяне.

В этот день было много прекрасной музыки. Компо-

Согласно устоявшейся традиции, Отдельный образцово-показательный оркестр МВД Республики Узбекистан в феврале каждого года дает отчетный концерт. На это красочное мероприятие собираются поклонники духовой музыки со всех уголков нашей Родины. Нынешний год не стал исключением, более того, мероприятие оказалось торжественным вдвойне, потому что наш замечательный оркестр отмечал 30-летний юбилей со дня основания.

зиции «Узбекистон посбонлари», «Парад солистов», «Крецендо», «Рапсодия», «Венецианский карнавал», «Бугмача билагим», «Диломом», «I will always love you» из кинофильма «Телохранитель» в чудесном исполнении юной певицы Камолы Ботировой, попури из репертуара группы «Ялла», мелодий Френка Синатры и балканских напевов, другие произведения оставили неизгладимый след в душах и сердцах поклонников оркестра.

нанта Пулата Бобожонова, после чего ветеранам и музыкантам оркестра были вручены нагрудные знаки «Ички ишлар органлари фахрий ходими», «Аъло хизматлари учун», памятные наручные часы и почетные грамоты.

Поистине фееричным стало выступление юных барабанщиков из оркестра Военно-музыкального академического лицея Национальной гвардии Республики Узбекистан. Ловкие талантливые мальчишки

– За годы плодотворной деятельности Отдельного образцово-показательного оркестра МВД сложилось немало замечательных традиций, – говорит подполковник М. Махмудов. – Прежде всего, это связь поколений. Когда-то мальчики и девочки приходили на наши концерты в сопровождении родителей, дедушек и бабушек, а сегодня они сами родители и приводят сюда своих детей. Мы празднуем 30-летие нашего оркестра, многое осталось позади,



В этот незабываемый вечер в адрес музыкантов было сказано много теплых слов, им преподнесено немало восхитительных букетов и подарков. Заместитель министра внутренних дел Республики Узбекистан генерал-майор Азиз Икрамов зачитал поздравление главы МВД генерал-лейте-

исполняли на барабанах композиции, пританцовывая и дефилируя по сцене, за что и были удостоены шквала восторженных оваций.

Концерт, согласно доброй традиции, завершился «Прощанием славянки» – своеобразной визитной карточкой оркестра.

многое сделано, но на будущее у нас запланировано немало интересного, и я уверен, что поклонники и любители духовой музыки будут всегда с нами, и эта традиция никогда не прервется!

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент
«На посту».

Фоторепортаж с II Республиканского форума женщин-сотрудниц органов внутренних дел, который проходил в г. Самарканде.





Фахрийлар – фахримиз

УСТОЗЛАР ЎГИТИГА ДОИМ ЭҲТИЁЖ БОР

Шу кунларда ИИВнинг тегишли фармойиши асосида тузилган республика тарғибот гуруҳи аъзолари томонидан жойларда Касбий маданият ва хизмат интизоми кодекси талабларини барча шахсий таркибга етказиш бўйича учрашув ҳамда мулоқотлар ташкил этилмоқда.

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ



Гулистон шаҳар ИИБда ИИВ Фахрийлар кенгаши раиси ўринбосари, истеъ-

фодаги полковник Ф. Болтабоев иштирокида учрашув бўлиб ўтди.

Унда соҳа фидойилари ўзларининг болалик орзу-ҳаваслари, машаққатларга бой хизмат фаолияти, эришган ютуқлари ҳақида ёшларга тўлқинланиб сўзлаб беришди. Албатта, бу каби тадбирлар ўсиб келаётган ёш авлоднинг она Ватанимизга бўлган дахл-

дорлигини янада кучайтириб, уларни хизмат бурчи ва қасамёдига садоқат руҳида тарбиялашга, касбий ҳамда маънавий-ахлоқий фазилатларини юксалтиришга муносиб ҳисса қўшади.

Зеро, ички ишлар органлари фахрийларининг касб йўли, кўп йиллик амалий тажрибаси чинакам ибрат мактабидир.

Ўз мухбиримиз.

ФАРҒОНА ВИЛОЯТИ



Фарғона вилояти ИИБда вазирлик Фахрийлар кенгаши ҳамда мазкур тарғибот гуруҳи аъзоси, истеъфодаги генерал-майор Ҳабибулла Ҳожиматов иштирокида «Уч авлод учрашуви» ўтказилди.

Учрашувда сўз олган фахрийлар давлатимиз раҳбарияти томонидан соҳа ходимларига кўрсатилаётган эътибор, қўйилаётган талаблар, Касбий маданият ва хизмат интизоми кодексининг мазмун-моҳиятини шахсий таркибга ҳаётий

мисоллар ёрдамида тушунтириб бердилар.

Ходимларга турли мураккаб ва низоли вазиятларда кодекс ҳамда тегишли қонунчилик талабларига қатъий риоя қилиш, тамагирлик, мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш каби иллатлардан йироқ юриш, фуқароларга ҳар томонлама намуна бўлиш кераклиги хусусида маслаҳат ва тавсиялар берилди.

Ўзаро савол-жавоб ҳамда самимий мулоқот руҳида кечган учрашув соҳа ходимларининг билим даражаси ва касбий маҳоратини юксалтиришга хизмат қилиши, шубҳасиз.

Ўз мухбиримиз.

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ



ИИВ Фахрийлар кенгаши аъзоси, истеъфодаги полковник М. Сагаатов Сурхондарё вилояти ички ишлар органлари шахсий таркиби билан учрашувлар ўтказди. Дастлаб вилоят ИИБда бошланган тадбирлар Термиз, Денов, Шўрчи, Олтинсой, Шеробод, Қизириқ ва Бойсун туман ички ишлар бўлимларида давом этди.

Тадбирларда асосан «Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарорнинг мазмун-моҳияти ҳақида сўз

борди. Ички ишлар органларида хизмат қилаётган ходимлар ўз вазифаларини сидқидилдан бажариб, Касбий маданият ва хизмат интизоми кодекси талабларига қатъий амал қилиши кераклиги ўқтирилди. Шу билан бирга, босиб ўтилган йиллардан чиқарилган хулосалар, олинган тажрибалар билан ўртоқлашилди.

Истеъфодаги полковник М. Сагаатов вилоят ИИБ Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги подполковник А. Шарафутдинов билан биргаликда Денов, Бойсун, Шеробод туманлари ҳамда Термиз шаҳрида яшовчи фахрийларнинг хонадонларига бориб, ҳолидан хабар олишди. Улар билан самимий суҳбат қурилиб, совға-саломлар улашилди.

Ўз мухбиримиз.



Қоровул қўшинлари хизмат фаолиятидан

МУНОСИБ ШОГИРДЛАР ТАРБИЯЛАНМОҚДА

ИИВ Қоровул қўшинлари шахсий таркиби зиммасига юклатилган масъулиятли вазифаларни сидқидилдан бажариб, бир қатор ютуқларга эришиб келмоқда. Бунинг Бухоро вилояти Қоровулбозор туманида жойлашган 7536-ҳарбий қисмининг 3-батальонида олиб борилаётган ибратли ишлардан ҳам билса бўлади.

Батальонда тактик тайёргарлик шаҳарчасининг барпо этилгани йўриқномаларни юқори савияда ўтказиш имконини бермоқда. Шунингдек, шахсий таркибнинг билим даражасини ошириш, амалий кўникмаларини мустаҳкамлаш учун доимий равишда машғулотлар ўтказилапти.

– Ҳарбий хизматчиларнинг касбий ва маънавий-маърифий тайёргарлик кўриш ҳамда спорт билан шуғулланишлари учун имкониятлар етарли, – дейди батальон командирининг ўринбосари, капитан Хурсанд Абдуллаев. – Қоровул қўшинлари қўмондонининг фармойишига асосан, «Интизом ойлиги» доирасида ўтказилаётган тадбирларга қоровул, ҳарбий назоратчилар наряди ва суткали нарядга ажратилган ходимлар жалб қилинган. Машғулотларда шахсий таркиб ўртасида кийим кийиш қоида-қоида ҳамда фуқаролар билан муомала маданиятига риоя қилиш,



қуролни қўллаш тартиби ва коррупцияга йўл қўймаслик борасида тушунтириш ишлари олиб борилмоқда. Шунингдек, тактик-маҳсус ўқув машғулотларини доимий равишда ўтказмоқдамиз.

Батальонда хизмат интизоми ва қонунийликни мустаҳкамлашга ҳам устувор вазифа сифатида ёндашилмоқда. Мазкур йўналишдаги тарғибот тадбирларида камчиликларга

йўл қўйган ходимларнинг қилмиши муҳокама этилиши баробарида, сафдошларига ибрат бўлаётганлар рағбатлантириляпти. Мисол учун айтадиган бўлсак, Ватан ҳимоячилари кунини муносабати билан учинчи даражали сержант Ёрмурод Назаров «Қўшин аълочиси» кўкрак нишони соҳиби бўлди.

Кўрик-танловлар ва спорт мусобақаларида батальон қўлга киритаёт-

ган ютуқлар ҳам талайгина. Хусусан, ўтган йил якуни бўйича жанговар хизмат ва ҳарбий интизом бўйича ҳарбий қисмда биринчи ўринни олганини фахр билан тилга олса арзийди. Вилоят ички ишлар органлари ўртасида ўтказилган мерганлик мусобақасида жамоанинг тажрибали аёл ходимаси, кичик сержант Зулфия Султонова иккинчи ўринни эгаллади. ИИВ Қоровул қўшинлари миқёсида ўтказилган тасвирий саянат мусобақасида оилавий рассомчилик йўналишида яна бир тажрибали ходим, кичик сержант Ёрқин Назаров ва унинг қизи Нодирабегим чизган суратлари биринчи ўринга лойиқ топилди.

Хуллас, батальон командири, подполковник Б.Турсунов раҳбарлигидаги шахсий таркиб бугун кечагидан, эртага эса бугунгидан самаралироқ хизмат қилишга интиляпти. Хизматда бой тажриба тўплаганлар эса муносиб шогирдлар тарбиялашмоқда.

Мирзокул АҲАДОВ,
«Postda» мухбири.

Бухоро вилояти.



АЁЛ — МЕХР-САДОҚАТ ВА

Давоми. Бошланиши 1-бетда.

Азиз ва мўтабар аёлларимиз, аввало, миллат эртаси бўлган соғлом ва маънан баркамол авлод тарбиячиси, онадир. Бу нозик хилқат вакиллари, қишлоқ хўжалиги, саноат, тадбиркорлик, фан-техника, инновация, таълим-тарбия, соғлиқни сақлаш, ҳуқуқ-тартибот, маданият, санъат ва бошқа соҳаларда ўзининг оқиллиги, донолиги, билим-тафаккури, ташаббускорлиги, ғайрат-шижоати билан самарали меҳнат қилиб, давлат ва жамият ҳаётида фаол иштирокчига айланиб бораётган фидойи инсон. Бу айна дамда ички ишлар органларидек масъулияти оғир ва машаққатли соҳада жонкуярлик билан хизмат олиб бораётган хотин-қизларимиз тимсолида ҳам яққол намоён бўлмоқда.

Форумнинг биринчи куни иштирокчилар учун ҳақиқий маънода билим-тафаккур, ақл-ирода, тажриба ва маҳорат синови бўлди, десак, асло муболаға эмас. Иштирокчилар тантанали тарзда кутиб олинди ва ички ишлар органларида хизмат қилаётган хотин-қизлар ўртасидаги «Фидойи аёл ходима», «Энг яхши китобхон ходима», «Заковат» интеллектуал кўрик-танловлари ҳамда «Шахмат» спорт мусобақасига старт берилди.

Вилоят «Ёшлар маркази»да ички ишлар органларининг турли соҳавий хизматлари ва ҳудудий ИИБ вакилларида иборат 18 та жамоа «Заковат» интеллектуал ўйинида ақлий салоҳиятларини намоён этишди. Қизғин баҳс-мунозараларга

тобхон, маънавиятли ходималарни саралади, десак, хато бўлмайди. Унда иштирокчиларнинг бадиий адабиёт, мутолаа, ақлий билим ва интеллектуал салоҳияти синовдан ўтди. Ходималарнинг чиқишларини Ёзувчилар уюшмаси, Маънавият ва маърифат маркази мутахассислари, фахрийлар ва соҳавий хизмат вакилларида иборат ҳайъат аъзолари баҳолаб борди.

Самарқанд шаҳридаги «Grand Sogdiana» меҳмонхонасида эса ходималар «ақл гимнастикаси», яъни шахматдан дона суриб, ўзларининг нимага қодир эканлигини амалда кўрсатишди.

Форумнинг энг мураккаб ва масъулиятли беллашуви — «Фидойи аёл ходима»

ва жанговар тайёргарлиги синовдан ўтказилди.

Ходималар 1000 метр масофага югуриш, «Макаров» тўппончасини тўлиқсиз қисмларга ажратиш ва йиғиш, электрон тирда ўқотиш шартлари бўйича беллашилди. Шундан сўнг билим даражасини аниқлашга қаратилган тест синовларини топширишди.

Шунингдек, форумнинг биринчи куни тадбирлари доирасидаги барча иштирокчилар Самарқанднинг тарихий қадамжоларида бўлишди.

Форумнинг иккинчи куни Самарқанд шаҳридаги Нурафшон саройи эрта тонгдан меҳр қўйган касбида фахр-ифтихор билан меҳнат қилаётганидан юз-кўзлари нурафшон ходималар билан

Р. Маматов, Республика Маънавият ва маърифат маркази «Маърифат» тарғиботчилари жамияти аъзоси, таниқли олима, фалсафа фанлари доктори, халқаро тоифадаги спикер Ж. Шермухамедова иштирок этди.

Тадбирда сўзга чиққан Ички ишлар вазири ўринбосари, генерал-майор А. Икрамов мамлақати-

спорт усталлигига номзод, 4 нафар спорт йўналиши бўйича «Зулфия» мукофотини олган хотин-қизлар хизмат қилмоқда.

Мана, яқинда — 10 февраль куни Остона шаҳрида ўтказилган энгил атлетика бўйича X Осиё чемпионатининг бешкураш (60 метрга тўсиқлар оша югуриш, узунликка сакраш, ядро



бой беллашувда беш кишидан иборат жамоалар ғолиблик учун бор имкониятини ишга солди.

Самарқанд шаҳридаги вилоят Ахборот-ресурс марказида бўлиб ўтган «Энг яхши китобхон ходима» танлови чин маънода ҳақиқий ки-

кўрик-танлови ҳисобланади. Ички ишлар органларида хизмат қилаётган хотин-қизлар орасидан ўз касбининг моҳирларини аниқлаш ва эътироф этиш мақсадида ташкил этилган ушбу кўрик-танловда иштирокчиларнинг жисмоний

янада файзга тўлди. Танлов ғолибларини тақдирлашга бағишланган тантанали тадбирда Бош вазир ўринбосари З. Маҳкамova, Ички ишлар вазири ўринбосари, генерал-майор А. Икрамов, Самарқанд вилояти ИИБ бошлиғи, полковник

мизда хотин-қизларнинг оғирини энгил қилиш, ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий фаоллигини ошириш масаласи давлат сиёсатининг муҳим йўналишига айланганига жавобан, уларнинг сони жамиятнинг барча соҳаларида ортиб бораётганига эътибор қаратди. Хусусан, бугунги кунда ички ишлар органларида ҳам эркалар билан бир сафда турли соҳавий хизматларда хотин-қизлар самарали фаолият юритиши билан кифояланмай, қатор ютуқларга эришаётганига эътибор қаратиб, «Ҳозирда сафимизда 8 нафар Ўзбекистонда хизмат кўрсатган спортчи, халқаро тоифадаги спорт устаси, 23 нафар спорт устаси ва 9 нафар

улоқтириш, баландликка сакраш, 800 метрга югуриш) босқичида Қоровул қўшинлари ҳарбий хизматчиси кичик сержант Екатерина Воронина иккинчи бор олтин медални қўлга киритди», дея таъкидлади.

Ниҳоят ғолиблар эълон қилинди.

«Заковат» интеллектуал ўйинида Наманган вилояти ИИБ жамоаси биринчи, Тошкент вилояти ИИБ жамоаси иккинчи, Жиззах вилояти ИИБ жамоаси эса учинчи ўринни эгаллади.

«Энг яхши китобхон ходима» кўрик-танловида биринчи ўринга ИИБ номидан иштирок этган катта сержант Шаҳноза Шукурова лойиқ кўрилган бўлса, кейинги ўринларни Тошкент шаҳар ИИББ вакили майор Бахтигул Аманова ва

ТАРАҚҚИЁТ ТИМСОЛИ



Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш бўлинмаси вакили оддий аскар Севара Ортиқматова кўлга киритди.

Шахмат мусобақасида биринчи ўринни лейтенант Гулҳаё Шокаримова (Наманган вилояти ИИБ), иккинчи ўринни капитан Дилафруз Шарапова (Тошкент шаҳар ИИББ), учинчи ўринни катта лейтенант Нилуфар Хўжарова (ИИБ вакиласи) эгаллади.

«Фидойи аёл ходима» кўрик-танлови



якунида ҳар жиҳатдан фаол, ташаббускор ходималар ғолиб деб топилди, десак, янглишмаган бўламиз. Унда Самарқанд вилояти ИИБ вакили майор Моҳина Юнусова мутлақ ғолиб бўлган бўлса, ИИБ вакили подполковник Мадина Султанова ва Наманган вилояти ИИБ вакили майор Зоҳида Каримовага кейинги ўринлар насиб қилди.

Барча ғолиб жамоалар ва ходималарга қимматбаҳо совғалар, китоблар тўплами, фахрий ёрлиқлар тантанали равишда топширилди.

Шунингдек, Ички ишлар вазирининг тегишли буйруғи билан Республика Маънавият ва маърифат маркази «Маърифат» тарғиботчилари жамияти аъзоси, халқаро тоифадаги спикер Ж. Шермухамедова Ички ишлар вазирининг қўл соати билан тақдирланди.

– Форумни ўтказишдан

жиҳатдан намуна бўладиган аёлларимиз ғолиб бўлди.

Форум доирасида ички ишлар органлари ходималарини ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида Ички ишлар вазирлигининг ижтимоий-маиший комиссияси қарорига мувофиқ, 10 нафар аёлга 90 миллион сўм миқдоридagi автокредитлар, 7 нафар ходимага ссудалар ва 3 нафар ходимага имтиёзли уй-жой ажратилди. Бундан ташқари, хизмат вазифаларини бажариш чоғида ҳалок бўлган 3 нафар ходимнинг оналарига дам олиш масканларига йўлланмалар берилди.

Шундай қилиб, билим, тажриба ва маҳорат синовларига бой II Республика форуми ходималарга унутилмас таассуротлар ҳада этиб, ўз якунига етди.

Келаси йил форумга Бухоро вилояти мезбонлик қилади.

Замира БОЛТАЕВА, Гулноза ТУРФУНБОЕВА, «Postda» – «Ha postu» мухбирлари.

мақсад тизимда хизмат қилаётган хотин-қизларнинг касбий ташаббускорлигини ошириш, уларни билим олишга, маънавиятли бўлишга чорлаш, хизмат интизомини мустаҳкамлаш борасидаги ишларни янги босқичга олиб чиқиш эди, – дейди ИИБ Маънавий-маърифий ишлар хизмати бошлигининг хотин-қизлар масалалари бўйича ўринбосари, подполковник Наргиза Миржалолова. – Ўйлайманки, муддаомизга етдик. Кўплаб билимли, ҳар

СЎЗ ФОРУМ ИШТИРОКЧИЛАРИГА

Бахтигул Аманова, Юнусобод тумани ИИОФМБ 2-сонли ИИБ ҲПБ ёшлар масалалари бўйича катта инспектор, майор:

– Ўтган йили форум доирасидаги «Заковат» интеллектуал ўйинида жамоамиз билан иштирок этган эдик. Бу сафар «Энг яхши китобхон» танловида ўзимни синаб кўришга қарор қилдим.

Болалигимдан китоб ўқишга қизиқаман. Танловда қатнашиш мақсадида иш жадвалим тиғиз бўлишига қарамай, бир қанча китобларни ўқиб, қаттиқ тайёргарлик кўрдим. Қувонарлиси, 7 ёшли ўғлим мени кузатиб, оқшомлари кўлига



китоб олиб, эртақлар ўқий бошлади.

Бугун фахрли иккинчи ўринни кўлга киритганимдан, кадрдонларим ва яқинларим қалбида мутолаага муҳаббат уйғота олганимдан хурсандман.

Гулноза Раҳматуллаева, Наманган вилояти ИИБ ҲПБ хотин-қизлар масалалари бўйича инспектор, катта лейтенант:



– Заковат – «Ақл жанги»-дир. Унинг бошқа беллашувлардан фарқи бутун жамоанинг муваффақияти ҳар бир иштирокчининг зукколигига боғлиқ эканидир. Агар унда барча билимдонлар бир ёқадан бош чиқариб, кенгашиб фикрлашса, албатта, натижа қувонарли бўлади. Бугунги интеллектуал ўйинда жамоамиз илк бор иштирок этди. Ҳамкасбларимнинг пухта тайёрлангани туфайли фахрли биринчи ўринни кўлга киритдик.

Дилноза Бегназарова, Самарқанд шаҳар бўйича ИИОФМБ 3-сонли ИИБ ҲҚМБ инспектор, капитан:

– Форумда иштирок этиш жараёнида касбдошларим билан фикрлашиш асносида тажриба алмашдик. Бу, ўз навбатида, кейинги хизматимизни янада тўлиқ ва сифатли амалга оширишда аҳамиятлидир.

Яқинда автомашина олиш мақсадида кредит ажратилишини сўраб мурожаат қилгандим. Бугун ушбу форум жараёнида ҳамкасбларим қатори, мен ҳам 55 миллион сўмлик ссуда



сертификатига эга бўлдим. Тизим раҳбарияти томонидан ходималарнинг ижтимоий қўллаб-қувватланаётганидан чексиз мамнунман.





Ma'naviyat va ma'rifat darsi

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH — TARAQQIYOT KAFOLATI

«Buyuk sakrash»

«Menda ikkita yo'l bor edi: birinchisi – o'g'irlash hamda do'stlarim va qarindoshlarimni «Forbes» ro'yxatiga kiritish, bu bilan xalqimni qup-quruq yer ustida qoldirish, ikkinchisi – xalqimga xizmat qilish va mamlakatni dunyoning eng yaxshi mamlakatlari o'ntaligiga kiritish. Men ikkinchisini tanladim». Bu so'zlar g'oyat qiyin va murakkab sharoitda Malayziya tarkibidan ajralib chiqqan Singapurni qisqa vaqt ichida jahonning iqtisodi baquvat, korrupsiyadan xoli, bugun ham rivojlanishdan to'xtamayotgan mamlakatga aylantirgan, barcha xalqaro reytinglarda birinchilikni saqlab kelayotgan ushbu mamlakatga uzoq yillar boshchilik qilgan mashhur davlat arbobi Li Kuan Yuning qimmatli so'zlaridan bir parcha, xolos.

Xo'sh, korrupsiyani yengish mumkinmi?

Ko'pchilik dunyoda korrupsiya balosini yengish ancha dushvor ish, uning ildizlari shu darajada tomir otganki, uni tag-tubi bilan sug'urish qiyin, deyishadi. Biroq singapurlik davlat arbobining korrupsiyani yengib, «yanchib» o'z yurtida chinakam «mo'jiza», farovonlik sari «buyuk sakrash»ni amalga oshirgani yuqoridagi savol va ikkilanishga munosib javob bo'lishi mumkin.

Ushbu davlat allaqachon shiddat bilan rivojlangan mamlakatlar ro'yxatidan joy olishga ulgurdi. Endi u o'zining yirik biznes markazlari, banklariga, osmono'par binolariga, chiroyli yo'llar, eng yaxshi ta'lim va rivojlangan sog'liqni saqlash tizimiga ega. «Singapur tajribasi» yoki «Singapur sifati» degan atama paydo bo'lgan.

Singapur qanday qilib qisqa vaqt ichida bunday natijalarga erishdi? 1950-yillarda Singapurda pora ochiq tarzda olingan va hatto bu illat mahalliy hokimiyatlarda an'anaga ham aylanib ulgurandi.

To'g'ri, mamlakatni modernizatsiya qilishda ustuvor yo'nalishlar: investitsiya va innovatsiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy modernizatsiya, siyosiy barqarorlik muhim omil bo'ldi. Biroq mamlakat taraqqiyotining eng muhim omili sifatida korrupsiyaga qarshi kurashish ustuvorlik kasb etdi. Hukumat rahbari shaxsiy aloqalaridan qat'i nazar,

korrupsiyani yo'q qilishni asosiy vazifa qilib belgiladi. Shu vaqtdan boshlab mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus byuro tuzilib, u Bosh vazirga shaxsan hisobot beradigan bo'ldi. Mazkur Byuro xodimlariga keng vakolatlar bilan birga, korrupsiyada gumon qilinganlarni qidirish, hibsga olish, ularning qarindoshlari va kafillarini tergov qilish, korrupsiya ishini yuritish jarayonida aniqlangan har qanday huquqbuzarliklarni tekshirish topshirig'ini berdi. Hattoki Li Kuan Yu korrupsiya bilan qo'lga tushgan qarindoshlarini ham ayovsiz jazoladi. Shuningdek, hukumat rahbari sudya va davlat xizmatchilarining maoshlarini oshirdi. Mas'uliyatli lavozimlarda ishlaydigan davlat xizmatchilarining ish haqi xususiy korporatsiyalarning top-menejerlari bilan taqqoslanadigan darajaga ko'tarildi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro'yxatida ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining axloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham mazkur davlatda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, dunyo olimlari va siyosatchilari davlat arbobi Li Kuan Yu qat'iyat va ishonch bilan o'tkazgan islohotlarni bejiz «inqilobiy» deb atashmagan.

Islohot islohot uchun emas, inson qadri uchun

Korrupsiyaga qarshi kurashish mamlakatimizda ham davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Buni so'nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan konseptual ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin. Chunonchi, sohada normativ-huquqiy bazani tizimli ravishda takomillashtirib borish choralari ko'rilmogda. Fikrimizning isboti o'laroq, korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi qonunning kuchga kirgani, shuningdek, turli qonunosti hujjatlarining qabul qilinganini keltirish mumkin. Shuningdek, qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolarning mazkur sohadagi ishtiroki, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar, jazo muqarrarligini ta'minlash va bu borada xalqaro hamkorlikni ta'minlash kabi choralalar mustahkamlab qo'yildi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarning asosida davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmogda. Bundan tashqari, budjet xarajatlarini tartibga solish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, budjet qonunchiligining buzilishi faktlari to'g'risida xabardor qilish va budjet jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish tartib-taomilini tashkil etish bo'yicha «Openbudget» – «Ochiq budjet» portali ishga tushirildi. Bir so'z bilan aytganda, islohot islohot uchun emas «inson qadri uchun» tamoyiliga asoslanib amalga oshirilmogda.

Halollik – insoniylik belgisi

Azaldan xalqimiz halollik, poklik kabi fazilatlarga alohida e'tibor berib, bu xislatlarga inson umrining xotirjam, osoyishta va farovon o'tishiga kafolat sifatida qarab kelgan. Shu bilan birga, bunday yuksak insoniy fazilatlar kishilar ma'naviyatini shakllantirishda asosiy omil, deya e'tirof etilgan.

Halollik haqida ko'p va xo'p gapiramiz-u, ammo unga amal qilish oson emas. Halollikni shior qilgan inson bunday fazilat bilan hamisha faxrlanadi. Biroq ayrimlar egri va nopok yo'lni tanlab, boshi berk ko'chaga kirib qolganliklarini kech anglashadi. Bunga, albatta, nafs balosi sababchi bo'ladi. O'z manfaatini o'z galar manfaatidan ustun qo'yish, ehtiyojga erk berish esa nafsni rag'batlantiradi. Bunday holatda nafsni jilovlab bo'lmaydi. Ulug'alloma Nosir Xisrav aytganlaridek:

G'avvos tama qilib marvarid, marjon, Oxir fido qilur unga shirin jon.

Darhaqiqat, halollik inson tabiatidagi eng go'zal tuyg'u bo'lib, aynan mana shu tuyg'u orqali u boshqalarning mehr-muhabbatini qozonadi. Qalbi pok va toza, halol yo'ldan yurgan insonning hamisha ko'ngli ravshan, xotirjam bo'ladi.

Keyingi paytlarda ichki ishlar organlarida o'tkazilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, shaxsiy tarkib o'rtasida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifat jihatdan yangi pog'onalar ko'tarildi, xodimlarning bilim saviyasini yanada yuksaltirish, halol, sadoqatli va fidoyi xodimlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada halollikni shior qilgan xodimlar ko'plab uchramogda. Xodimlar fuqarolar tomonidan taklif etilayotgan poralarni olmasdan, uning huquqiy oqibatlarini haqida qayta-qayta tushuntirishmogda, o'z fikridan qaytmagan taqdirda, o'rnatilgan tartibda vakolatli organ-ga murojaat qilishmogda.

Bosh prokuratura ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yil davomida respublika bo'yicha jami 2965 ta jinoyat ishi bo'yicha 3116 nafar mansabdor shaxs jinoyi javobgarlikka tortilgan. Jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 110 nafari respublika, 264 nafari viloyat va 2742 nafari tuman (shahar) miqyosidagi vazirlik, idora va tashkilotlarda faoliyat yuritgan.

Mansabdor shaxslarning jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 1 trln. 12 mlrd. so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgan bo'lib, tergov jarayonida ushbu zararining 847 mlrd. so'mi undirilgan.

Reytingda yana yuqoriladik

O'zbekiston «Open Data Watch» tashkilotining «Open Data Inventory» (ODIN) Ochiq ma'lumotlar reytingida 66 ball yig'ib, jahon bo'yicha 40-o'rinni, Markaziy Osiyoda esa 1-o'rinni egalladi.

Mazkur reyting mamlakatning statistik takliflari qanchalik to'liqligini va ulardagi ma'lumotlar xalqaro ochiqlik standartiga mos kelishini baholaydi. Uning 2022-yilgi natijalarida birinchi o'rinni Singapur egallagan. Keyingi pog'onalarni esa Daniya, Finlandiya band etgan. Mintaqa mamlakatlari hisoblangan, Qozog'iston 48, Qirg'iziston 89, Tojikiston 120, Turkmaniston 192-o'rinlarda qayd etilgan.

Xulosa o'rnida

Inson har bir ishda halollikni ustuvor bilsa, erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyat ham barakali va fayzli bo'ladi. Shuningdek, ko'zi to'q, halol va pok, kishilarga ezigulik ulashuvchi insonning umri osoyishtalikda, farovonlikda o'tib, el-yurt orasida obro'-e'tibor qozonadi. Eng muhimi, yurtda tinchlik, jamiyatda barqarorlik hukm suradi. Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish adolatli jamiyat barpo etishdek ulug'vor maqsadga erishishimizda muhim o'rin tutishini hech qachon unutmasligimiz lozim.

Azizjon FAYZIYEV,
mayor.

Har qanday davlat tizimida – qonunlar va boshqa far-moyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslar-ning noqonuniy yo'l bilan boyishiga yo'l qo'ymas-lik lozim.
Aristotel



Пробация хизмати

МУШТАРАК МАҚСАД ЙЎЛИДА

Маҳкумлар Пробация хизмати назоратига ўтиши биланоқ уларни ижтимоий мослаштириш, иш билан таъминлаш, психологик, ҳуқуқий ва моддий ёрдам кўрсатиш чоралари кўрилади.



Айни вақтда Жиззах вилояти ИИБ Пробация бўлими ва унинг куйи тизимлари назорати остида бўлган 2700 дан ортиқ шахснинг психологик портретлари ишлаб чиқилган. Яъни, маҳкумларнинг руҳияти ўрганилиб, жиноят содир этишга мойил, жиноят содир этиш хавфи юқори ва тўлиқ тузалиш йўлига ўтганлар тоифаларига ажратилган.

Ўтган йили Пробация хизмати ходимлари томонидан назоратдаги шахсларнинг 1047 нафари ишга жойлаштирилди. Шунингдек, 1136 нафарига ҳуқуқий, 15 нафарига саломатлигини тиклашда, 13 нафарига ID-карта расмийлаштиришда, 10 нафарига истеъмол кредити, 92 нафарига моддий ёрдам олишда ёрдам берилди. Бундан ташқари, 43 киши касбга ўқитилди.

– Бизга шаҳар ва туман секторлари раҳбарлари, давлат ташкилотлари ва жамоатчилик

вакилларидан иборат ишчи гуруҳ яқиндан ёрдам бермоқда, – дейди вилоят ИИБ Пробация бўлими бошлиғи, подполковник Мирзабек Рўзиқулов. – Назорат остидаги шахслар ва уларнинг оила аъзолари билан ўтказилган мулоқотлар давомида аниқланган муаммоларни мазкур ишчи гуруҳ кўмагида ҳал қилиш чораларини кўряпмиз.

Ҳозирга қадар суд томонидан белгиланган чекловларга қатъий амал қилган шахсларнинг 1090 нафари муддатидан олдин шартли равишда озодликка чиқарилиб, чекловларни бузган 170 нафар шахснинг жазоси амалдагисидан оғирроғига алмаштирилган. Бу тадбирлар қайта жиноятларнинг олдини олиш ҳамда маҳкумларни тўғри йўлга йўналтиришда қўл келаятир.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
«Postda» мухбири.

Жиззах вилояти.



Яқинда ИИБ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаментининг Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш бошқармаси раҳбарлари ҳамда ходимлари иштирокида йиғилиш бўлиб ўтди. Тадбирни Департамент бошлиғи, полковник Рустам Турсунов очиб, соҳада маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш ҳамда касбий тайёргарлик бўйича ўтган йил давомида амалга оширилган ишларга тўхталди.

ТАҲЛИЛ, ТАНҚИД, ТАКЛИФ

Жумладан, ходимларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларнинг хизмат вазифасини виждонан бажаришини таъминлаш, амалий кўникмаларини ошириш мақсадида ўтказилган маънавий-маърифий тадбирлар, ўқув машғулоти, давра суҳбатлари, савол-жавоб кечалари ва тренинглар ўзининг ижобий самарасини бераётганини қайд этди.

Шунингдек, «ходимбай» ишлаш ва шахсий таркибни ижтимоий ҳимоя қилиш, билим савияси, касбий малакаси, дунёқарашини ошириш, жисмоний ва жанговар тайёргарлигини кучайтириш бўйича бир қатор ижобий ишлар амалга оширилганлигини алоҳида таъкидлар экан, бу борадаги муаммо ва

муассасаларида маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш ҳамда касбий тайёргарлик ишларини амалга ошириш



камчиликларга ҳам тўхталиб ўтди.

Йиғилишда иштирок этган Ички ишлар вазирининг ўринбосари, генерал-майор Азизбек Икромов Департаментнинг маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш ҳамда касбий тайёргарлик йўналишидаги фаолиятини янада такомиллаштириш борасида бир қатор таклифлар берди. Жумладан, инсон омилини янада камайтириш мақсадида келгуси фаолиятини электрон дастурлар орқали бошқариш учун босқичма-босқич рақамлаштириб бориш лозимлигини таъкидлади.

Департамент бошлиғининг ўринбосари, полковник Гафур Курамбаев мавжуд муаммоларни бартараф этиш учун амалга оширилган ишлар ҳақида гапирди. Департамент ва унинг минтақавий мувофиқлаштириш марказлари, жазони ижро этиш

учун қўшимча лавозимлар ташкил этилганлигини айтди. «Ходимбай» ишлаш тизими асосида белгиланган тадбирлар, ходимларнинг ижтимоий ҳимояси, уларни рағбатлантириш масалаларида ҳам фикр-мулоҳазаларини билдирди. Шунингдек, Департамент вакиллари халқаро миқёсда кўпкураш спорт мусобақаларида ютуқларга эришиб келаятиганини мамнуният билан қайд этди.

Тадбир сўнгида генерал-майор Азизбек Икромов Департаментнинг навбатчилик қисмида бўлиб, ходимлар учун яратилган шарт-шароитлар билан танишди. У тизим муассасаларида хизмат қилаётган навбатчи ходимлар билан видеокузатув тизими орқали муассасалардаги вазият юзасидан суҳбат қилди.

Шахризод ШОКИРОВ,
ИИБ ҳузуридаги ЖИЭД
Ахборот хизмати бошлиғи,
катта лейтенант.

Борьба с коррупцией – залог развития

Коррупция от латинского слова «corruptio» – подкуп, продажность – является термином, обозначающим противоречащее законодательству и морали использование должностным лицом властных полномочий и доверенных ему прав в личных целях.

Как только коррупция пускает корни в стране, она сразу начинает распространяться на всех уровнях. Человек, работающий в государственных структурах, ожидает взятку за каждую услугу – получается своего рода «персональная надбавка» к заработной плате. Чтобы оправдать эту надбавку и добиться получения дополнительных денег, этот чиновник выстраивает различные барьеры для обращающихся к нему людей, максимально затрудняет жизнь просителям. Некоторые чиновники дают понять, что могут предложить клиенту очень дорогие услуги, ясно намекая: для них нет преград в виде законов. Лицензии на ведение коммерческой деятельности, привлекательные правительственные заказы, налоговые послабления продаются и покупаются. Если же вы жалуетесь на высокую цену, то у бюрократа есть готовый ответ: «Я знаю, что это дорого, но дешевле никак нельзя. Деньги нужно делить между всеми!». Так совершается преступление.

Коррупция является основным препятствием для роста и развития любого государства. Она разрушает систему управления, уничтожает возможность верховенства закона.

В последние годы борьба с коррупцией стала приоритетным направлением государственной политики в Узбекистане. В 2020 году глава государства Шавкат Мирзиёев, выступая на 75-й сессии Генассамблеи ООН, подчеркнул важность борьбы с коррупцией, отметив, что эта работа в Узбекистане вышла на новый уровень, приняты важные законы, создана независимая антикоррупционная структура. Президент Узбекистана показал всему миру, насколько важен этот путь для нашей страны. Позитивные преобразования, наряду с обеспечением социально-экономического роста,

служат повышению международных рейтингов и индексов и улучшению имиджа нашей республики.

Совершенствование организационно-правовых механизмов противодействия этому злу современности было определено нашей страной как одна из важных задач. Был принят ряд важных мер по предотвращению коррупции.



Кардинально улучшена система рассмотрения обращений физических и юридических лиц. Открыты народные приемные Президента, приоритетной задачей которых является восстановление прав граждан, а также горячие линии и виртуальные приемные каждого министерства и ведомства. Налажена практика проведения выездных приемов должностных лиц всех уровней в отдаленных районах. Обеспечение свободы людей напрямую решать различные вопросы и прямое общение чиновников с людьми приводят к снижению коррупции на нижнем и среднем уровнях.

Были приняты практические меры для обеспечения свободы СМИ, журналистов и блогеров, открытости государственных структур для общественности

и СМИ, а также налаживания тесного взаимодействия и сотрудничества между высокопоставленными должностными лицами и журналистами в их повседневной деятельности. В результате каждое действие чиновников предается гласности, а при открытости заниматься коррупцией намного сложнее.

Радикально реформирована система государственных услуг. Населению оказывается более 150 видов госуслуг с использованием удобных, централизованных и современных информационно-коммуникационных технологий. Снижение человеческого фактора, устранение прямых контактов между государственным служащим и гражданином, широкое

за обеспечение эффективного взаимодействия между государственными органами, СМИ, институтами гражданского общества и другими неправительственными секторами, а также за международное сотрудничество в этой области.

За непродолжительный период времени усовершенствована система противодействия коррупции и в органах внутренних дел. Достигнуты значительные результаты в деле привлечения к ответственности виновных, систематически проводятся превентивные меры. Принимаются соответствующие практические и организационные меры по формированию в сознании каждого сотрудника понимания и принятия принципа «Коррупция

– против моей карьеры и моей семьи, против моего будущего!» и безусловного следования ему.

Во всех отраслевых службах и образовательных учреждениях системы проводятся тренинги по формированию нетерпимого отношения к коррупции, духовно-просветительские мероприятия. Внедрена система «сотрудник», направленная на оценку каждого сотрудника и проведение воспитательных мероприятий на основе данной оценки.

Особое внимание направлено на уменьшение условий и факторов, вызывающих коррупцию. Принимаются меры по

использованию информационных технологий, несомненно, существенно снизили факторы коррупции.

Улучшились механизмы обеспечения открытости и прозрачности государственных органов, институтов общественного контроля. Широкое использование цифровых и онлайн-технологий повысило подотчетность государственных органов перед общественностью.

При каждом министерстве и ведомстве создан общественный совет, который является важным звеном в установлении эффективного общественного контроля над деятельностью государственных органов. Создано Антикоррупционное агентство, которое определяется как специально уполномоченный государственный орган, ответственный

снижению влияния человеческого фактора, широкому внедрению информационно-коммуникационных технологий. Работает механизм оповещения о фактах предложения гражданами взяток сотрудникам органов внутренних дел.

Безусловно, борьба с коррупцией, как негативным фактором, препятствующим развитию государства, является делом всенародным, ведь в нем участвуют все заинтересованные министерства, ведомства, организации, структуры, а также граждане нашей страны. Лишь в тесном взаимодействии и сотрудничестве мы достигнем намеченных целей и поставим надежный заслон коррупции.

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент «На посту».



Ёшлар – келажак бунёдкори

ОРЗУЛАРИ ОСМОН ЙИГИТ

Маҳаллаларда осойишталикни таъминлаш, профилактик ишларни жадаллаштириш, ҳуқуқбузарлик ва жиноятларни эрта аниқлаб, олдини олиш, рўй берганларини фош этишга катта эътибор қаратилмоқда. Бу каби тадбирларни амалга оширишда барча соҳаларда бўлгани каби, ички ишлар органларида ҳам шижоатли ёш ходимларга асосий таянч сифатида қаралмоқда. Чуқур билим ва мустақил фикрлаш қобилиятига эга бўлган ёшлар маҳаллаларда профилактик ишларни жадал амалга оширишда фаоллик кўрсатмоқда.



– ИИБ Академиясини тамомлагач, хизмат фаолиятимни Қарши туманидаги «Потрон» маҳалла фуқаролар йиғинига хизмат кўрсатувчи 41/15-сонли таянч пунктида профилактика инспектори лавозимида бошладим, – дейди лейтенант Абдурахмонов. – Олийгоҳда олган назарий билимларимни амалиётга муваффақият билан татбиқ этишга ҳаракат қиляпман. Албатта, бу жараёнда менга устозим – профилактика инспектори, капитан Фиёсиддин Файзиев ўзининг йўл-йўриқ ва маслаҳатлари билан кўмакдош бўлмоқда.

Маҳаллада 6128 нафар фуқаро истиқомат қилади. Маҳалла раиси Лазиз Мирзаев, ҳоким ёрдамчиси Бобур Қиличов, хотин-қизлар фаоли Машхура Раҳмонова, ёшлар етакчиси Ўткирбек Турсунов билан ҳамкорликда ҳудудда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, аҳолининг ҳуқуқий



саводхонлигини оширишга қаратилган профилактик тадбирлар изчиллик касб этгани боис ўтган йили сезиларли натижаларга эришилди. Жорий йилнинг ўтган даврида эса биронта ҳам жиноят содир этилмади.

Шу ўринда қаҳрамонимиз спортнинг бодибилдинг тури билан мунтазам

шуғулланиб келаётганини, мамлакат биринчилиги совриндорига айланганини айтиш жоиз. Қолаверса, у бодибилдинг бўйича жаҳон чемпионати иштирокчиси ҳам.

Ёш ходим Абдумалик Абдурахмоновнинг дилига туккан орзулари бисёр. Бу орзуларнинг рўёбга чиқишида ота-онасининг дуоси, устозларининг ўғитлари унга йўлдош, қўлдош бўлса, ажаб эмас.

Содиқ РАҲИМОВ,
«Postda» мухбири.
Қашқадарё вилояти.



Соҳа фидойилари

ТАЖРИБАЛИ КИНОЛОГ

Қизиқарли, шиддатли детектив фильмлар аслида ҳаётдан олинади. Жиноятчилар қаернидир ўмаришади, гиёҳвандлик моддаларини сотишади. Ички ишлар органлари ходимлари олиб борган тезкор тадбирлар натижасида уларнинг қилмиши фош этилади. Бу жараёнда кинология хизмати ходимлари ҳам тўрт оёқли дўстлари билан катта қаҳрамонликлар кўрсатишади.

...Жорий йилнинг 17 февраль куни Наманган шаҳридаги «Мажнунтол» маҳалласида фуқаро М.Файзуллаев «Дамас» автомашинасини уйи олдида қаровсиз қолдиради. Машина саломида қолдирилган пулни кимдир ўғирлаб кетади.

Тергов-тезкор гуруҳи таркибида Наманган вилояти ИИБ ЖТСБ Кинология бўлими катта мутахассис-кинологи, катта сержант Бахтиёр Олимжонов «Барон» лақабли хизмат ити билан воқеа жойига чиқади. Жонивор ҳидни олгач, пиёдалар йўлаги бўйлаб чамаси 150–200 метр юриб, йўл четига дўкон олдига келиб тўхтади. Суриштирув ишлари давомида жиноятни содир этган шахслар ушбу дўкондан харид қилиб кетгани аниқланди. Хуллас, тезкор-қидирув ва суриштирув ҳаракатлари натижасида жиноят Наманган шаҳри «Озод» маҳалласида яшовчи, 9-синф ўқувчиси А.Р., «Соҳибкор» маҳалласида яшовчи фуқаро Н.М. томонидан содир этилгани маълум бўлди.

Қаҳрамонимиз ўзига бирикти-

рилган хизмат ити билан вилоят миқёсида ўтказилган оммавий ва профилактик тадбирларда фаол қатнашиб, ўз вазифасини виждонан, сидқидилдан бажариб келмоқда.

Таъкидлаш керакки, 2022 йилда Кинология бўлими ходимлари хизмат итлари билан 1165 марта воқеа жойига чиқиб, 231 та жиноятнинг очилишида фаол қатнашди. Уларнинг саъй-ҳаракатлари туфайли 2 та қотиллик, 190 та ўғирлик жинояти аниқланди, гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятлар сони эса 39 тани ташкил этди. Жиноятчилардан 4985,7 гр гиёҳвандлик моддалари, таркибида гиёҳвандлик моддаси бор 83 туп ўсимлик ашёвий далил сифатида олинди. Жорий йил бошидан буён 119 маротаба воқеа жойига чиқилди, ақлли жониворлар кўмагида 33 та жиноят фош этилди.

Бахтиёр ўзига бириктирилган хизмат ити билан 14 марта ижтимоий-сиёсий, оммавий-маданий ва спорт тадбирларида қатнашиб, жамоат тартибини сақлаш, фуқаролар хавфсизлигини таъминлаш



борасида жонбозлик кўрсатди. Шунингдек, 2 марта ўғирлик, 1 марта гиёҳвандлик моддалари билан боғлиқ жиноятларнинг «иссиқ изида» очилишига катта ҳисса қўшди.

– Бахтиёр Олимжонов 2013 йилдан ҳозирги кунга қадар кинология хизматида фаолият юритиб келмоқда, – дейди вилоят ЖТСБ Кинология бўлими гуруҳ командири, катта сержант Илҳомжон Ғопиров. – Ушбу давр мобайнида киноло-

гия хизмати йўналиши бўйича бой тажриба ҳосил қилиб, етук мутахассис бўлиб шаклланди.

Катта сержант Б.Олимжонов «Устоз–шогирд» аънарасини давом эттирган ҳолда, ўз билим ва тажрибаларини ёш ходимларга ўргатиб келмоқда. Муҳими, у жиноятларни фош этишда ҳамкасбларига ўрнак бўлиб келмоқда.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
«Postda» мухбири.
Наманган вилояти.



ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОН

Биз яшаётган даврни бежизга ахборот технологиялари асри деб аташмайди. Боиси, интернет ва унда яратилган инновацион платформалар инсонларга ҳар сонияда бир-бири билан мулоқот қилиш, дунёда юз бераётган янгиликлардан ўша вақтнинг ўзида хабардор бўлиш имконини юзага келтирди. Мамлакатимизда ҳам ахборот технологиялари барча соҳаларга жадаллик билан кириб бормоқда.

Масалан, ўзим Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университетида таҳсил оламан. Шуни айтишим мумкинки, бугун талабаларнинг ҳаёти ва таълим олиш жараёни аввалгидан фарқ қилади. Ҳозирги вақтда улар рейтинг дафтарчасини кўтариб юришмайди, ўзларига тегишли маълумотнома ёки шартномасини олиш учун деканатга бориб овора бўлмайди. Барчаси ягона электрон тизимда жамланган.

Касбимдан келиб чиққан ҳолда шунга амин бўлдимки, амалиёт биз журналистлар учун жуда муҳим экан. Шу боисдан, ҳозирда ўқиш билан бирга, ИИВ Ахборот хизматида иш тажрибамни ошириб бормоқдаман ва бевосита мазкур тизимда ҳам катта ўзгаришлар юз бераётганига гувоҳ бўляпман.

Хусусан, ички ишлар органлари тизимида ҳам қоғозбозлик ва ортиқча оворагарчиликларга барҳам берилляпти. Тизимда рақам-

лаштириш жараёни қизгин кечмоқда. Сўнгги йилларда республика бўйича ички ишлар органларида ташкил этилган янги ситуацион-таҳлилий марказлар, «102» автоматлашган тизимлар ва соҳада хизмат қилиш истагида бўлган номзодларни саралаш учун мўлжалланган «E-nomzod» электрон тизимлари юқоридаги фикрларимнинг тасдиғидир.

Ситуацион-таҳлилий марказ биноси илғор ахборот технологиялари, серверлар ва кузатув экранларига эга. Марказ ички ишлар органларининг куч ва воситаларини ахборот технологиялари асосида бошқаришга ихтисослашган. Унда «102» тизими, видеокузатув камералари, интернет ва бошқа манбалардан келиб тушаётган маълумотлар автоматлашган тарзда йиғилади ва қайта ишланади. Бунинг учун бу ерда 554 терабайт хотирага эга 18 та сервер, катта ҳажмли кузатув экранни, замонавий компьютер-



лар мавжуд. Таъкидлаш жоизки, мазкур марказ бутун мамлакатимизда жамоат хавфсизлигини таъминлаш учун хизмат қилади. Мисол учун, қоидабузарлик автотранспорт воситасининг давлат рақами ёки шахснинг юз қиёфаси орқали тезкор аниқлиниб, қидирув ташкил этиш имкони мавжуд. Бундан ташқари, янги тизим сунъий интеллект ёрдамида ишлаши ва ушбу жараёнда инсон омилининг минимал даражада эканлиги таҳсинга лойиқдир.

Тизимда кузатилаётган рақамлаштириш сиёсати нафақат соҳа ходимларига, балки аҳолига ҳам маъқул бўлмоқда. Негаки, энди ав-

валги оворагарчиликларга чек қўйилди. Фуқаролар ҳам ишлари масофавий тарзда тез ва осон битаётганидан мамнун. Айниқса, ушбу жараён ногиронлиги бўлган шахслар, кексалар ва ёш болали аёллар учун жуда катта қулайликлар яратмоқда.

Хуллас, бугун юртимиз тубдан янгиланмоқда. Бундай ўзгаришлар эса биз ёшларнинг шижоатимизни янада ошириб, жонажон Ватанимизнинг гуллаб яшнашига муносиб ҳисса қўшишимизда муҳим аҳамият касб этади.

Шаҳзода ШУКУРУЛЛАЕВА,
ИИВ Ахборот хизмати
мухбири.



ХАЛҚАРО МЕЪЁРЛАРГА МОС

Мамлакатимизда инсон ҳуқуқлари, қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш борасида кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, суд-ҳуқуқ тизимида ҳам бу борада қатор ўзгаришлар, янгиланишлар бўлмоқда. Таъкидлаш керакки, билиб-билмай жиноят содир этган, бугунги кунда жазо муқаддаси ўтаётган шахслар ҳам шу юртнинг ҳар бир фуқароси каби, ислохотлардан баҳраманд бўлишга ҳақли.

Жорий йилнинг 15 февраль куни қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига маҳкумларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишга қаратилган ўзгариш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонун ҳам айна шу мақсадга қаратилган яна бир муҳим қадам бўлди.

Мазкур қонунга кўра жазо муқаддасини ўтаётган шахсларнинг ҳақ-ҳуқуқларини таъминлашга оид бир қатор муҳим ва долзарб вазифалар белгилаб берилди. Эндиликда озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган шахсларнинг жазони ижро этиш муассасаларида жазо муқаддасини ўташ даврида бажарилган ҳар қандай иши уларнинг меҳнат стажига қўшиб ҳисобланади. Буни амалга ошириш учун эса жазони ижро этиш муассасалари томонидан ижтимоий солиқ тўланган бўлиши лозимлигини эътиборга олиб, «Фуқароларнинг

давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги қонунга ҳам тегишли ўзгариш киритилмоқда.

Шунингдек, Жиноят-ижроия кодексига ҳам бир қатор ўзгариш ва қўшимчалар киритилмоқда. Масалан, маҳкумларга нисбатан қийноқ ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки қадр-қимматини камситувчи муомала ҳамда жазо турларини қўллашга йўл қўйилмаслиги қатъий белгиланди. Аслини олганда, бу каби салбий ҳолатларга илгари ҳам йўл қўйилмас эди. Бунинг мазкур қонунда мустаҳкамланиши эндиликда жавобгарликнинг кучайтирилишига хизмат қилади.

Яна бир эътиборли жиҳати шундаки, имо-ишора билан гаплашадиган (кар-соқов) маҳкумлар билан гаплашиш бўйича мутахассисларда муаммо туғиларди. Ҳозиргача ички буйруқ ёки фармойишлар асосида сурдо таржимонлардан фойдаланилган бўлса, эндиликда мазкур

муаммонинг ечими ҳам қонун билан мустаҳкамланди. Маҳкумларни фойдали меҳнатга жалб этиш масаласи ҳам халқаро ҳуқуқ нормаларига мувофиқлаштирилиб, маҳкумлар шифокор томонидан тасдиқланган жисмоний ва ахлоқий қобилиятларига мувофиқ ишлаши кераклиги белгиланди.

Шу кунгача тартиббузарликни бартараф этиш чоғида вазият тақозосига кўра маҳкумларга тинчлантирувчи кўйлак кийдириш амалиёти бор эди. Бироқ мамлакатимизда инсон ҳуқуқларини таъминлаш тизимини халқаро стандартларга мослаштириш жараёнида мазкур банд ҳам БМТнинг «Маҳбуслар билан муомала қилиш бўйича минимал стандарт қоидалари» (Нельсон Мандела қоидалари)нинг 33-моддасига мослаштирилди. Яъни, жазони ижро этиш муассасаларида тинчлантириш кўйлагини қўллаш амалиётда бекор қилинди. Шунингдек, камераларда жазо муқаддасини ўтаётган маҳкумларга кинофильм ва телекўрсатувлар кўришга рухсат берилмаслик бўйича чекловлар олиб ташланди.

Бундан ташқари, қонунда жазони ижро этиш муассасаларида биринчи ёки иккинчи гуруҳ ногиронлиги бўлган шахсларга тўғри келадиган яшаш майдони нормаси БМТнинг «Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида»ги конвенциясининг тегишли бобларига мувофиқ, 2 квадрат метрдан 3 ква-

драт метрга оширилмоқда. Шунингдек, улар учун тураржойлар махсус воситалар ва мосламалар билан жиҳозланиши қатъий белгиланди.

Маҳкумларга рағбатлантириш, сақлаш шароитини яхшилаш, муддатидан илгари шартли озод қилиш ва жазони енгилроғи билан алмаштириш чоралари кўриш учун асос бўладиган уларнинг тузалиш йўлига ўтганлигини баҳоловчи аниқ мезонлар ишлаб чиқилди. Бунда уларнинг меҳнатга ва таълимга виждонан ёндашиши, тарбиявий-тадбирлар ўтказишда фаол иштирок этишлари, муассасанинг ички тартиб қоидаларига риоя этишлари, интизомий жазога тортилмаганлиги ҳам инobatга олинадиган бўлди.

Таъкидлаш жоизки, яратилаётган бу шароитлардан маҳкумлар ҳам тегишли хулоса чиқариб, имкониётлардан унумли фойдаланишлари лозим. Қолаверса нафақат соҳа ходимлари, балки жамиятнинг ҳар бир аъзоси уларга елка тутиши, жамиятда муносиб ўрнини топиб кетишларига кўмаклашиши керак. Чунки кўзланган барча эзгу мақсадларга фақат бирдамлик ва ҳамжиҳатлик билан эришилади.

Мухриддин ЖАЛОЛИДИНОВ,
ИИВ ҳузуридаги ЖИЭД ТБ
катта юрисконсулти, капитан.





Ветераны – наша гордость

МУЖСКОЙ ХАРАКТЕР

Юсуфжон Якубжанов начинал службу в органах внутренних дел «детским» инспектором Андижанского ГОВД. Когда в начале 1990-х годов в УВД формировался отряд боевого применения, так раньше назывался МООН, Юсуфжон успешно сдал нормативы по физической подготовке, так как был кандидатом в мастера спорта по курашу, и был принят в отряд. Начались беспокойные будни. Бойцы упорно тренировались на тренажерах, в полевых условиях, во время учений. Отрабатывались навыки действия одной командой, владения всеми видами оружия и элементами рукопашного боя, задержания вооруженных преступников, освобождения заложников.

Ю. Якубжанов служил помощником командира, а затем и командиром взвода, заместителем командира роты по работе с личным составом. Был начальником отдела боевой и служебной подготовки УВД Андижанской области, заместителем начальника штаба Учебного

центра УВД. За годы службы майору не раз приходилось вступать в схватку с вооруженными преступниками, он участвовал в специальных мероприятиях по задержанию наркоторговцев, экстремистов.

После выхода в 1996 году на заслуженный отдых ге-

рой очерка работал начальником службы безопасности совместного предприятия в Алтынкульском районе.

Несколько лет назад был создан благотворительный фонд инвалидов-ветеранов и жертв антитеррористической борьбы и вооруженных конфликтов «Ва-

тан». Майора в отставке Ю. Якубжанова избрали председателем Андижанского отделения фонда. Сегодня филиал объединяет ветеранов областных органов внутренних дел, службы национальной безопасности, таможенного комитета, прокуратуры и Национальной гвардии.

Ю. Якубжанов вместе с заместителем, майором в отставке Анваром Ахмедовым выезжают в районы, выявляют ветеранов, оказавшихся в трудной жизненной ситуации, оказывают им посильную помощь. Проводят встречи с учащимися школ, студентами вузов, беседуют с ними о воспитании, патриотизме, истории органов



внутренних дел. Ветераны рассказывают о том, как Узбекистан стал независимым, о трудностях, с которыми пришлось столкнуться, героизме бойцов специальных подразделений.

По стопам Юсуфжона Якубжанова пошел его старший сын капитан Ойбек Якубжанов, который служит территориальным инспектором профилактики в одной из махаллей Андижанского района.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент
«На посту».



Безопасность на транспорте

СОБЛЮДАТЬ УСТАНОВЛЕННЫЕ ПРАВИЛА



Подразделениями Управления обеспечения безопасности на транспорте Джизакской области осуществляются профилактические мероприятия среди жителей махаллей, расположенных вдоль железнодорожного полотна. Задача – предупреждение несчастных случаев.

Сотрудники отделения, обеспечивающего безопасность на участке железной дороги «Зарбдор – Даштобод», провели встречу с жителями махалли имени Навои Зарбдорского района. Речь шла о необходимости неукоснительного

соблюдения установленных правил: пересекать железнодорожные линии в специально оборудованных местах, не проявлять беспечность, не подвергать риску свою жизнь.

В ходе встречи в общеобразовательной школе № 24 рай-

она учащимся разъяснено, что, находясь у железнодорожных путей, необходимо быть предельно внимательным, не отвлекаться на гаджеты. Отмечена недопустимость взбирания на крыши вагонов, что чревато поражением высоковольтным напряжением, метания предметов в проходящие поезда. Сотрудники подчеркнули, что предусмотрена ответственность за противоправные действия на объектах железнодорожного транспорта.

Соб. корр.
Джизакская область.



Davra suhbatlari

INSON HUQUQI — MUHIM MASALA

IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyida bo'lib o'tgan davra suhbatida fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent shahar sudining sudyalari ishtirok etishdi.



Tadbirida qatnashgan sudyalari «Yangi O'zbekiston va inson huquqlari» hamda «Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyati» mavzularida akademik litsey o'quvchilariga ma'ruza qilishdi.

Notiqlar yurtimizda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va unga rioya etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanishi, bu bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka hamda huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli ravishda bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o'zbek modeli shakllanganligini ta'kidlab o'tishdi.

Davra suhbatida o'quvchilar inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyati yuzasidan o'zlarining bilimlarini yanada mustahkamlashdi. Shuningdek, kelgusida huquqiy fanlarni yanada mukammal o'zlashtirishlarida sud hokimiyati vakillari bilan bo'lgan ushbu muloqot muhim ahamiyat kasb etadi.

Qiziqarli va mazmunli o'tgan tadbirida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi.

Sarvar SOBIROV,
«Postda» muxbiri.



Ilmiy-amaliy konferensiya

ZAMONAVIY XAVF-XATAR VA TAHDIDLAR

IIV Madaniyat saroyida vazirlik Qorovul qo'shinlari qo'mondonligining tashabbusi bilan «O'zbekiston Qurolli Kuchlari turlari va qo'shin turlari maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalari jangovar-xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar va Mudofaa vazirliklari hamda Milliy gvardiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar hamkorligida bo'lib o'tgan mazkur anjumanni IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondoni, polkovnik Hasan Botirov ochib, insoniyat hayoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda dunyo hamjamiyati o'rtasida yuzaga kelayotgan siyosiy o'zgarishlar va o'zaro munosabatlarda vaziyatning tobora harbiy tus olayotgani, bu esa barcha rivojla-

timizdagi barqaror vaziyatni saqlash, tahlikali vaziyatlarda huquqni muhofaza etuvchi boshqa organlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, aholining tinch va osuda hayotini kafolatlash hamda jamiyatimiz rivojlanishini



ta'minlash maqsadida zamon talablariga mos darajada harakat va izlanishlar olib borayotganligiga to'xtalib o'tdi.

Konferensiyada yurtimizdagi barqaror vaziyatni saqlab qolish,

nayotgan davlatlar qatori, mamlakatimiz hukumati va Qurolli Kuchlar tizimi mutasaddilarini ham o'ylashga majbur etayotganini ta'kidladi.

Shuningdek, qo'mondon zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarni inobatga olgan holda, mazkur tizimga kiruvchi vazirlik va idoralar yur-

keskin o'zgarishlarga imkon bermaslik hamda qisqa muddatlarda uni jilovlash uchun mamlakatimiz Qurolli Kuchlar tizimida maxsus bo'linmalar va ularning maqsadli qo'llanilishiga bo'lgan ehtiyojni bundanda oshirish lozimligi bildirildi.

Mixli SAFAROV,
«Postda» muxbiri.

Qoraqalpog'iston Respublikasi

ZO'RAVONLIKKA YO'L YO'Q

Mamlakatimizda xotin-qizlar haq-huquqlarini himoya qilish, yashash tarzini yaxshilash, iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarishga ko'maklashish, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo bu xotin-qizlarning barcha muammolariga yechim topildi, deyishga asos bo'la olmaydi. Jamiyatimizda hali-hamon maishiy zo'ravonlik, xotin-qizlarga tazyiq holatlari uchrayotibdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tgan yili tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan 2452 nafar xotin-qizga himoya orderlari berildi. 1327 ta oila yarashtirildi, 1052 ta nizo bar-taraf qilindi. Afsuski, shunga qaramay, 30 ta oilani saqlab qolishning iloji bo'lmadi.

Tahlillar xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklarning aksariyati oilaviy kelishmovchilik tufayli ro'y berayotganligini ko'rsatadi. Misol uchun, Shumanay tumanida yashovchi fuqaro S.G. tuman IIBga erining ustidan ariza bilan murojaat qildi. Surishtiruv ishlari chog'ida aniqlanishicha, ilgari bir necha marta ma'muriy javobgarlikka tortilgan, ichkilikbozlikka ruju qo'ygan er mast holda turmush o'rtog'ini urib, doimiy ravishda zo'ravonlik sodir etib kelgan. Bunday xatti-harakatlar oqibatida kelib chiqadigan ko'ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida profilaktika inspektori tomonidan ayolga himoya orderi berilishi ta'minlandi. Oila profilaktika inspektori tomonidan nazoratga olindi.

Albatta, bu kabi holatlar sodir bo'lmasligi uchun

profilaktik tadbirlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois o'tgan davr mobaynida tuman-shahar IIBlarning xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha inspektorlari mutasaddi idora va tashkilotlar vakillari bilan



hamkorlikda mahallalarda uyma-uy yurib, ayollarning tashvish va muammolarini o'rganishdi. Bu jarayonda oilalardagi ma'naviy muhitni

sog'lomlashtirish, og'ir ahvolda qolgan xotin-qizlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Natijada aniqlangan 2731 ta muammoning 2315 tasi ijobiy yechim topdi.

O'rganishlar davomida zo'ravonlik va tazyiq holatlarining kelib chiqishiga aksariyat holatlarda xotin-qizlarning huquqiy savodxonlik dara-

jasining pastligi, oilaviy tarbiyadagi uyat-andisha kabi cheklovlar sabab bo'layotgani ma'lum bo'ldi. Shuni hisobga olgan holda, xotin-qizlar ishtirokida «Mahallangdagi ayolga befarq bo'lma!», «Zo'ravonlikka yo'l yo'q!» kabi aksiyalar o'tkazildi.

Joriy yilda ham bu yo'nalishdagi ishlar davom etmoqda. Shu paytgacha ichki ishlar organlari tomonidan 94 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi.

Xulosa tariqasida aytadigan bo'lsak, kelgusida xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning barvaqt oldini olish, ayniqsa, nizoli oilalardagi muhitni sog'lomlashtirish borasidagi ishlarni manzilli davom ettiramiz.

Kurzada REYMKULOVA,
podpolkovnik.



✓ *Аёл билан олам мунаввар*

ИБРАТ ОЛСА АРЗИГУЛИК

ИИБ Академиясини муваффақиятли таъмомлаган чирчиқлик Гулноз Фуломова ўз ҳаётини хоразмлик Дониёр Давлетов билан боғлашга аҳд қилди. Қиз бола палахмон тоши, дейишади. Хуллас, уни ота-она розилиги билан Хоразмга узатишди. Шу тариқа лейтенант Гулноз Фуломова Қўшкўпир тумани ИИБ ҲООБ ВЕЎН ва ҲПГ инспектори лавозимида хизмат фаолиятини бошлади.

Албатта, соҳага кўникиши у қадар қийин кечмади. Шундай бўлса-да, унга устоз-мураббийлари яқиндан ёрдам беришди, йўл-йўриқ кўрсатишди. Ўтказилган профилактик тадбирлар бесамар кетмади. Эришилган ижобий натижалар туфайли у вилоят ички ишлар органларининг энг фаол ёш ходимларидан бири сифатида эътироф этилди. Шундан сўнг гуруҳ катта инспектори вазифасида ҳам ўн йил сидқидилдан хизмат қилди. Турли танловларда, маънавий-маърифий тадбирларда фаол қатнашди.



Айни кунда подполковник Гулноз Фуломова туман ИИБ ҲПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори лавозимида хизмат фаолиятини давом эттирмоқда. У туман ҳудудидаги маҳаллаларда, корхона, ташкилот ва муассасаларда, хотин-қизлар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олиш, уларни ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя қилиш, иш билан таъминлаш бўйича самарали ишларни амалга оширмоқда. Шунингдек,

маҳаллалар кесимидаги ўрганишлар жараёнида хотин-қизларни ижтимоий фойдали меҳнатга жалб этиш, касб-хунарга йўналтириш, имтиёзли банк кредити ажратилишида амалий ёрдам беряпти. Тегишли ташкилотлар вакиллари билан ҳамкорликда амалга оширилган бундай саъй-ҳаракатлар натижасида жорий йилнинг ўтган даврида 9 нафар хотин-қиз ўз мутахассислиги бўйича доимий иш ўрнига эга бўлди. Ажрим ёқасига

келиб қолган 4 та оила сақлаб қолинди. Энг муҳими, туман ҳудудида аёллар томонидан содир этилаётган ҳуқуқбузарликлар кескин камайиб, уларнинг ҳуқуқий ҳимояси таъминланмоқда.

Лавҳамиз қаҳрамони юртимизда тинчлик ва осойишталикни таъминлашдаги фидойи хизмати учун ўтган йили Хотин-қизлар жамоатчилиги кенгаши ташаббуси билан ўтказилган «Йил аёли» миллий танловининг республика босқичида ғолибликни қўлга киритди.

Ҳадиси шарифларда оила муқаддас саналган. Унинг мустақамлиги, умрбоқийлиги қўрғон ҳимоячиларига боғлиқ. Буни яхши англаган Гулноз Фуломова умр йўлдоши билан аҳил-иноқ ҳаёт кечириб, фарзандларини комил инсонлар қилиб вояга етказмоқда. Бу бахтли оилага кўпчилик ҳавас қилади. Аслида бахт дегани шу эмасми?..

Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбири.

Хоразм вилояти.

Суратда: подполковник Гулноз Фуломова қизи София билан.
Саъдулла АБДУЛЛАЕВ
олган сурат.

БОЛАЛАР ДАВЛАТ ҲИМОЯСИДА

Ёш авлод келажиги унинг тарбиясига боғлиқ. Яхши тарбия кўрган фарзанд етук инсон бўлиб вояга етса, аксинча, носоғлом муҳитда тарбияланган боладан ҳуқуқбузарликларга мойил киши етишиб чиқади. Бу ҳаётининг ҳақиқат. Бироқ айрим ота-оналар ана шу ҳақиқатни унутиб, фарзандлари тарбиясига эътиборсиз қарашяпти, қаровсиз қолдиришяпти. Натижада улар уйда, оилада топмаган меҳрни кўчадан излаб, турли ёмон йўлларга кириб қолмоқда, кўча боласига айланяпти.

Вилоят ИИБ ҲПБ Вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш марказида ота-оналари, яқинлари эътиборидан, назоратидан четда қолган болалар вақтинча сақланади. Улардан бирининг ота-онаси ажрашган бўлса, бошқасиники хорижга ишлашга кетиб, қариндошлари қарамоғида қолдиришган. Баъзиларининг эса оиласидаги носоғлом муҳит уларнинг кўчага чиқиб кетишига сабаб бўлган. Ходимларимиз уларнинг



ота-оналари ёки яқин қариндошлари, қўшилари, маҳалла фаоллари билан суҳбатлашиб, масалага ойдинлик киритишяпти. Шунингдек, уюштирилаётган тадбирлар давомида ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантиришга алоҳида эътибор беряпмиз.

Марказимизда барча шартшароитлар муҳайё қилинган. Бу ерга келтирилган ҳар бир вояга етмаган биринчи галда тиббий кўриқдан ўтказилади. Болалар

қабул қилиниб олиниши билан яшаш жойи, ота-онаси ва яқинлари борлиги ўрганилади. Агар улар бўлса, уйлари ёки қариндошлариникига, ёлғизлар эса махсус мактаб-интернатларга юборилади. Масалан, ўтган йил давомида 1450 нафар вояга етмаган марказимизга қабул қилинди. Шундан келиб чиқиб, инспектор-психологлар зиммасига ҳар бир ўқувчи кесимида умумий ўрта таълим муассасаларида психологик муҳитни яхшилаш, вояга етмаганлар орасида қонун бузилишларига мурасасиз муносабатда бўлиш ҳиссини шакллантириш,

муаммоли ўқувчиларнинг ота-оналари иштирокида манзилли ишлаш вазифалари юклатилди. Шунингдек, уларнинг ҳар бирига яшаш манзили бўйича топширилган боланинг ўқиши, хулқ-атвори ва оиласидаги муҳит йил давомида маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш органлари билан биргаликда мониторинг қилиниб, вояга етмаганлар бўйича ёзма ахборотлари олинди.

Мақсадимиз битта: ҳеч бир бола эътиборсиз қолмасин, оиласи бағрида, ўз ота-онаси билан бахтли яшасин! Қолаверса, ҳар бир ота-она ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар ўз қарамоғида бўлган болалар онгу шуурига буюк тарихимиз, миллий урф-одатлар, анъана ва қадриятларимизни сингдириш орқали, улар қалбида миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини кучайтириши, ватан равнақи ва юрт тараққиётига салмоқли ҳисса қўшиш энг олий бурч эканини англатиши лозим. Зеро, улар бизнинг келажакимиздир.

Шаҳноза ИБОДОВА,
Бухоро вилояти ИИБ ҲПБ
ВЕИҲЁК маркази бошлиғи,
катта лейтенант.

✓ *Пример для подражания*

ПРИЗВАНИЕ – БЫТЬ ПОБЕДИТЕЛЕМ

В конце января текущего года в городе Алмаде (Португалия) состоялись международные соревнования Гран-при Португалии по дзюдо, в котором участвовали спортсмены из 67 стран. Представлявший Узбекистан мастер спорта по дзюдо 28-летний Мухриддин Тиловов стал победителем, одолев в финале призера Олимпийских игр в Рио-де-Жанейро и Токио Ан Ба Уля из Южной Кореи. Когда Мухриддину вручали золотую медаль под звуки отечественного гимна и развевающийся флаг Узбекистана, он еле сдерживал слезы.



Сотрудник батальона оперативно-го назначения ГУВД города Ташкента младший сержант Мухриддин Тиловов учится заочно на 5-м курсе Узбекского государственного университета физической культуры и спорта. Его мама, Матлюба Буриева, – домохозяйка, отец, Абдурашид Буриев, работает учителем физкультуры в средней школе № 37 и по совместительству тренером по дзюдо детско-юношеской спортивной школы № 1 Яккабагского района Кашкадарьинской области. Он с семилетнего возраста начал заниматься с сыном дзюдо. Когда у Мухриддина не получалось, отец говорил: «Не бойся врага, не позволяй сомнениям овладеть тобой, и ты победишь». С этим девизом Мухриддин идет по жизни.

Он является победителем Гран-при по дзюдо (Ташкент, 2016 г.), серебряным

призером Grand Slam по дзюдо (Азербайджан, 2017 г.), бронзовым призером чемпионата Азии (Гонконг, 2017 г.), Grand Slam по дзюдо (Израиль, 2021 г.) и чемпионата Азии (Казахстан, 2022 г.). В настоящее время младший сержант готовится к 33-м летним Олимпийским играм-2024, которые пройдут в Париже (Франция).

Несмотря на многочисленные титулы и награды, герой очерка очень скромный. Он считает, что только трудолюбием можно достичь мечты. В 7.45 утра Мухриддин уже на разводе, после начинаются теоретические и практические занятия, затем несение вахты. При этом он регулярно тренируется в спортивном зале Федерации дзюдо.

– Спорт – моя жизнь, – говорит Мухриддин Тиловов. – Когда я позвонил маме из Португалии и сказал, что победил, она заплакала от счастья. В аэропорту встречали тренер и друзья, которые болели за меня. Каждый раз, когда выхожу на татами, перед глазами стоят мама и папа. В самый тяжелый момент я стараюсь идти до конца, при этом не знаю, откуда силы берутся. Примером для подражания для меня является двукратный чемпион мира и трехкратный бронзовый призер Олимпийских игр по дзюдо Ришод Собиров. Мне нравится, как он ведет технику боя, не давая противнику ни одного шанса. Он изматывает соперника, а потом резко ослабляет болевой прием, чтобы внезапным броском уложить его на ковер. Эта техника мне очень помогает.

Младший сержант Тиловов не любит говорить о себе. Он считает, что в спорте, как и в жизни, надо быть честным и открытым, не применять запрещенные приемы, и тогда тебя будут уважать все, даже противники. Порядочность – главный критерий настоящей мужины.

Бибигуль МУРТАЗАЕВА.

✓ *Лучшие в своем деле*

ПО СТОПАМ ОТЦА

К младшему инспектору-кинологу группы № 1 кинологического отделения отдела координации кинологической службы СОБ УООП УВД Сырдарьинской области рядовому Хасану Холжигитову в области относятся с особым уважением.

Хасан учился в общеобразовательной школе № 5 города Гулистана и мечтал, как его отец, Баходир Жабборов, стать сотрудником ОВД. Окончив с отличием школу, в 2010-2011 годах он отслужил в армии, а с октября 2012 года стал сотрудником кинологической службы УООП УВД Сырдарьинской области.

– Я счастлив, что пошел по стопам отца, который 28 лет жизни посвятил органам внутренних дел, – говорит рядовой Х. Холжигитов. – Мы с братом, Абдукадиром, продолжили его дело. Завоевать доверие и уважение людей – самая большая награда.

Хасан Холжигитов вместе со служебным псом по кличке Рекс

принимал участие в раскрытии десятков преступлений. Совсем недавно герой очерка и его питомец помогли раскрыть кражу. Неизвестный похитил пятнадцать миллионов сумов из дома, расположенного в махалле Дустлик города Гулистана. Рекс взял след примерно в трех километрах от дороги, по которой ехал злоумышленник. Х. Холжигитов определил, в каком направлении бежал вор, проверил камеры видеонаблюдения, установленные вблизи, в результате преступник был задержан по горячим следам.

Герой очерка – активный участник соревнований, проводимых среди сотрудников кинологических подразделений МВД республики,



неоднократно занимал призовые места. Недавно он был награжден медалью «Воспитание молодежи в духе патриотизма» Ассоциации борцов-ветеранов и инвалидов Узбекистана.

Рядовой Х. Холжигитов является высококлассным специалистом. Он эффективно раскрывает преступления, пресекает правонарушения, участвует в обеспечении

общественного порядка. Он всегда помогает тем, кто нуждается в поддержке. Решительность, смелость, честность и искренность, по словам Хасана Холжигитова, – главные качества, которыми должны руководствоваться не только сотрудники правоохранительных органов, но и любой человек.

Илхом РАСУЛОВ,
капитан.





Женщины в погонах

УСТРЕМЛЕННАЯ К ЦЕЛИ СОТРУДНИЦА

Жительница Денауского района Дурдона Солиева (имя изменено) торговала изделиями из золота. Она знакомилась с людьми, втиралась к ним в доверие и проворачивала сделки. Первое время девушка выполняла обещанное, но со временем стала тратить вырученные от продажи деньги на личные нужды и постепенно теряться из виду должников. Со временем суммы, которые она просила за грамм золота, стали казаться ей маленькими, и она обманным путем заполучила деньги, перечисленные на кредитные карты ее знакомых.



После обращения потерпевших в ОВД дело было передано следователю СО при ОВД Денауского района лейтенанту Дилшоде Косимовой.

Молодая сотрудница, проработавшая в следствии два года, внимательно изучила всю информацию и собрала необходимые доказательства. Она побеседовала со всеми фигурантами и собрала все доказательства. Против мошенницы возбуждено уголовное дело.

– Мне приходилось не раз сталкиваться с подобными ситуациями, – говорит лейтенант Д. Косимова. – К сожалению, в делах, связанных с мошенничеством, виноваты и сами

потерпевшие, так как зачастую являются абсолютно безграмотными в правовой сфере. В целях профилактики подобных преступлений сотрудники отдела на местах проводят правовой ликбез, дают населению необходимые разъяснения.

23-летняя Дильшоода выделяется старательностью, любознательностью, не боится трудностей, потому что любит свою работу. Она ощущает поддержку своих родителей, что придает ей сил и желания не останавливаться на достигнутом.

Девушка прислушивается к советам наставников, перенимает их навыки и идет к поставленным целям. Старшие следователи

следственного отдела майоры Ильхом Ражабов и Фарход Шарипов помогают освоить все тонкости профессии. Кроме того, героиня очерка активно участвует в различных культурно-массовых и информационно-просветительских мероприятиях.

У лейтенанта Д. Косимовой – большие планы и мечты. Она хочет отучиться в докторантуре и вести научную работу в выбранном направлении. Мы желаем, чтобы ее намерения осуществились, и она продолжала неустанно работать над обеспечением исполнения закона.

Феруза РАХМОНКУЛОВА,
корреспондент «Postda».
Сурхандарьинская область.

Служебная дисциплина возлагает на каждого сотрудника следующие обязанности:

соблюдать Конституцию и законы Республики Узбекистан, постановления палат Олий Мажлиса Республики Узбекистан, указы, постановления и распоряжения Президента Республики Узбекистан, постановления и распоряжения Кабинета Министров Республики Узбекистан, строго выполнять требования нормативных актов МВД.


Из Кодекса профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников органов внутренних дел.



Следствие ведут знатоки

НЕ СТОИТ ИГРАТЬ С СУДЬБОЙ

Следователь следственной группы при ОВД Жондорского района старший лейтенант Бехруз Тошев, разбирая показания о ссоре, разгоревшейся на свадьбе, решил, что обвиняемый мог ударить пострадавшего, либо находясь в состоянии алкогольного опьянения, либо из злого умысла. Он решил поехать в район, поговорить с председателем махалли и соседями и навести справки об участниках конфликта.



пристрастие к алкоголю. Родители девушки отказали ему.

– Мой наставник – подполковник Зокир Кодиров каждый раз настаивал на том, чтобы я внимательно искал корень проблемы, потому что одним неправильным действием можно разрушить судьбу человека, – поделился Бехруз Тошев. – Если вернуться к рассматриваемому делу, то можно предположить, что в конфликте отчасти была вина и потерпевшего, так как он мог вовремя остановиться, но оба предпочли выяснить отношения. Все это я учел при расследо-

вании. Суд вынесет справедливый приговор.

Старший лейтенант Б. Тошев строго придерживается принципа справедливости, внимательно и осторожно подходит к расследованию каждого дела, использует накопленные знания, навыки и опыт – все это позволяет ему эффективно раскрывать преступления. Так, за 2022 год он расследовал 86 уголовных дел, около семи-десяти из них были переданы на рассмотрение в суд.

Следователь Бехруз Тошев любит свою профессию. В 2019 году он окончил Академию МВД и начал

служебную деятельность в должности дознавателя следственной группы при отделе обеспечения безопасности на транспорте УВД Бухарской области. Затем работал следователем следственной группы при ОВД города Кагана. На нынешней должности – с сентября 2022 года.

Профессиональные приоритеты героя очерка – честность и беспристрастность, обеспечение наказания за преступление, содействие оправданию невиновных.

Мирзокул АХАДОВ,
корреспондент «Postda».
Бухарская область.

В ходе беседы многое прояснилось. Оказалось, что сыну обвиняемого нравилась дочь потерпевшего, и он хотел жениться на ней. Но стороне невесты пришлось не по душе, что парень был ранее судим и имел





Халолликни ишор қилган ходимлар

СЕРГАКЛИК УНГА ХОС

Профилактика катта инспектори, майор Мансур Тешабоев Андижон шаҳар учинчи митти туманда яшовчи, муқаддам уч маротаба судланган Г.М. ўз хонадонини «учрашувлар уйи»га айлантиргани ҳақида тезкор хабар олди. Аёл жуфтларни пул эвазига уйига киритиб, уларга айш учун зарур шароитларни яратиб берган.

Келиб тушган маълумотлар текширув давомида ўз тасдиғини топди. Майор М.Тешабоев ҳуқуқбузарлик юзасидан баённома тузди. Аёл шу кунгидека катта инспекторнинг хизмат хонасига келиб, тўпланган ҳужжатларни тергов бўлимига топширмаслик учун унга 200 АҚШ доллари таклиф қилди.

Профилактика катта инспектори Андижон вилояти ИИБ бошлиғи номига билдирги ёзиб, воқеани батафсил баён этди. Шу асосда ИИБ Шахсий хавфсизлик бош бошқармаси Андижон вилояти бўйича

бўлими ҳамда Департаментнинг Андижон вилояти бошқармаси ходимлари ҳамкорлигида тезкор тадбир амалга оширилди. Фуқаро Г.М. 200 АҚШ доллари миқдорида пора бераётган вақтда қўлга олинди. Унга нисбатан Жиноят кодексининг 211-моддаси биринчи қисми билан жиноят иши қўзғатилди. Ҳозирда тергов тадбирлари олиб борилмоқда.

Қаҳрамонимиз Хўжаобод туманида туғилган. Андижон давлат университетини тамомлаганидан сўнг осойишталик посбони бўлиш

мақсадида ҳужжатларини Хўжаобод тумани ИИБга топширади. 1999 йилдан ички ишлар органларидаги фаолиятини бошлайди. 2009 йилда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси йўналишида хизматни давом эттирган М. Тешабоев ҳозирги кунга қадар эл-юрт тинчлиги ва осойишталиги йўлида жонбозлик кўрсатиб келмоқда. Оилали, 3 нафар фарзанди бор.

Анвар ФУРҚАТОВ,
подполковник.

Андижон вилояти.



Ходимлар коррупсиyaning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishi va uning profilaktikasiga faollik bilan ko'maklashishi shart.

Xodimlar o'z boshlig'i yoki vakolatli organlarga o'zlarini boshqa shaxslar huquqbuzarlik sodir etishga undab murojaat qilgan har bir holat, shuningdek, boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan har qanday o'ziga ma'lum bo'lgan huquqbuzarliklar haqida xabar berishi zarur.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksidan.



Жиноят муҳокамаси

ЛОҚАЙДЛИК КЕЛТИРГАН ФОЖИА

Ҳеч бир жиноят сабабсиз юзага келмайди. Шунинг учун жиноят содир этилганидан сўнг пушаймон чекишдан кўра, унинг олдини олиш, тегишли чора-тадбирларни ўз вақтида кўриш афзалроқ.

Қўштепа туманидаги «Қийқи» маҳалласида содир бўлган қотиллик жинояти ҳам бугун кўпчиликни пушаймонлик гирдобига ботирмоқда. Аммо афсуслардан энди фойда йўқ.

Шу маҳаллада яшовчи руҳий хаста фуқаро касаллигининг кўзгаши оқибатида тажовузкорга айланиб, қўшинсининг уйига бостириб киради ва унга шикаст етказишга уринади. Қўшни кўрқиб, кўчага қочади. Унинг

фаоли, ёшлар етакчиси ва профилактика инспекторидан иборат бешлик аъзолари ҳамда тиббиёт ходимлари ўртасида ҳамкорлик тўғри ташкил этилмагани қаттиқ танқид остига олинди. Улар қишлоқ шифокорлик пунктидаги патронажлар билан биргаликда «хонадонбай», «фуқаробай» усулда иш ташкил қилиб, руҳий касал, ичкиликка ружу қўйган ва жиноят содир этишга мойил шахсларни олдиндан аниқлаши, тезкор таъсир чораларини кўриши зарур эди.

Муҳокамада вилоят Соғлиқни сақлаш бошқармаси ва Туман тиббиёт бирлашмаси мутасаддилари, маҳалла фаолларининг ҳам фикр-мулоҳазалари тингланди.

Келгусида бу каби кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини



ортидан қувлаб чиққан йигит эса йўлда ўз отасига рўбарў келади. Ота ўғлини тинчлантиришга уринади. Бироқ жазавага тушган хаста ўғил қўлидаги фишт бўлаги билан отасини уриб, оғир тан жароҳати етказди. Натижада ота ҳаёт билан видолашади.

Маҳаллада сектор раҳбарлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар вакиллари, кенг жамоатчилик иштирокида ушбу жиноят муҳокама қилинди. Маҳаллада фаолият кўрсатаётган раис, ҳоким ёрдамчиси, хотин-қизлар

олиш учун патронаж ҳамширалари маҳалладаги бешлик аъзолари билан узвий ҳамкорликда ишлаши кераклиги таъкидланди.

Абдусит СИДИҚОВ,
«Postda» мухбири.

Фарғона вилояти.

ТОМОШАБИН БЎЛМАЙЛИК

Жорий йилнинг 28 январь куни соат тахминан 20:00ларда Хатирчи тумани «Кориз-араб» маҳалла фуқаролар йиғинида яшовчи С.М «Сарой» маҳалласида яшовчи таниши М.Х. билан рашк туфайли жанжаллашиб қолади. Жаҳлдан кўзи қонга тўлган С.М. аёлнинг елка ва кўкрак соҳасига бир неча марта пичоқ урган. Оғир тан жароҳати олган М.Х. қариндошлари томонидан касалхонага олиб борилди, аммо шифокорларнинг саъй-ҳаракатларига қарамай вафот этди. Мазкур ҳолат юзасидан Жиноят кодексининг 97-моддаси 1-қисми билан жиноят иши қўзғатилди. Фуқаро М.Х. қўлга олиниб, ҳозирда дастлабки тергов ҳаракатлари олиб борилмоқда.

Ушбу жиноят вилоят ИИБ раҳбари бошчилигида «Кориз-араб» маҳалла фуқаролар йиғинида кенг жамоатчилик иштирокида муҳокама қилинди. Меҳр-оқибатнинг йўқолиб бораёт-



жароҳати етказиш эркакнинг шаънига иснод эканлиги қайта-қайта айтилди.

Ҳа, жиноятга жазо муқаррар. Энди айбдорнинг 4 нафар фарзанди маълум муддат отасиз улғайиши аниқ. Бундан муҳо-

камда иштирок этган фуқаролар ўзи учун тегишли ҳулоса чиқаради, деб ўйлаймиз. Маҳалланинг кўпни кўрган кексалари бу борада ёшларга панд-насихат қилишса, айтиш мумкин бўларди.

Маҳлиё ХОЛОВА,
«Postda» мухбири.

Навоий вилояти.



«ILIK UZILDI» PALLASI YAQINLASHMOQDA

Bahor iliq kunlari, qishdan so'ng asta uyg'onayotgan tabiat yashillikka burkanishi, atrofga yoqimli va musaffo ifor baxsh etishi bilan o'ziga xos. Lekin nima uchun bu faslda kuchga to'lish va ko'tarinki kayfiyatda bo'lish o'rniga, odamlarda ko'z tinishi, madorsizlik va bosh aylanishi, teri holatining yomonlashishi, tirnoqlar sinishi va sochlar to'kilishi kabi holatlar kuzatiladi? Bunga sabab – avitaminoz, ya'ni organizm zarur bo'lgan vitaminlar yetishmasligidir.

Ba'zi kishilar o'z tanasida vitamin tanqisligini to'ldirish uchun turli dori vositalarini mustaqil ravishda qabul qiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, vitamin yetishmasligi ham, ortib ketishi ham birdek zararli. Organizmda vitaminlarning me'yordan ortiq bo'lishi ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i, tanada toshmalar paydo bo'lishi, shuningdek, ichki a'zolarining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ularni shifokor tavsiyasi bilan qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Ammo ko'klam mahali kuzatiladigan yuqorida qayd etilgan holatlarni bartaraf etish uchun tabiiy ne'matlardan foydalisi yo'q. Ya'ni, bu pallada organizmni darmondorilarga boyitish, tabiat in'om etgan koni foyda ko'katlardan taomlar tayyorlab iste'mol qilish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda, ayniqsa, ushbu «ilik uzildi» deb atalmish vaqtda mador, ismaloq, yalpiz, ravoch, jag'-jag', semizo't, shovul, qoqi o't kabi shifobaxsh o'simliklardan tansiq taomlar, somsa-yu chuchvaralar, manti-yu qatlamalar iste'mol qilish an'anaga aylangan. Chunki tanaga mador baxsh etuvchi mazkur ne'matlar organizmga quvvat bag'ishlaydi, horg'inlik va charchoqdan xalos etadi, shuningdek, immunitetni oshirib, ovqat hazm qilish tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, bahoriy ko'katlardan tayyorlangan yeguliklar qon tomirlari tizimi va yurak faoliyatini yaxshilaydi, bosh og'rig'ini davolaydi, arterial bosimni tushiradi, qon aylanishini yaxshilaydi, miya faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uyqusizlikka qarshi kurashadi, organizmni ham tinchlantiradi, ham tetiklantiradi.



Bahorning asosiy taomlaridan hisoblanib, tayyorlanish jarayoni uzoq vaqt va sabr-qanoatni talab qiladigan sumalak va halim ham bir qator vitamin, oqsil, foydali moddalarga hamda organizm uchun zarur bo'lgan S darmondorisiga boy. Ushbu tansiq taomlar qon tarkibini yaxshilaydi, me'da-ichak faoliyatini me'yorlashtiradi, asabni tinchlantiradi. Shuningdek, ular organizmda modda almashinuvini yaxshilab, yurakka quvvat beradi va ruhiy holatni me'yorlashtiradi.

Shuning barobarida, bahorda tanaga quvvat baxsh etish,

organizmni vitaminlar, mineralar, antioksidantlar va ozuqa tolalari bilan boyitish uchun sabzavot va mevalar, yong'oq, sut mahsulotlari, go'sht, baliq, asal va boshqa mahsulotlarni taomnomaga kiritish tavsiya etiladi. Shuningdek, immunitetni mustahkamlash uchun ko'proq quyosh nurlaridan

bahramand bo'lish, to'g'ri va o'z vaqtida ovqatlanish, me'yorida uxlash va jismoniy mashqlar bajarib turish lozim. Ochiq havoda bir soatlik sayr ham organizmga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni kislorodga to'yintiradi.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

ВЕСЕННИЙ АВИТАМИНОЗ

Весна радует нас теплыми днями. Солнечные лучи греют сильнее, настроение улучшается. Казалось бы, самое время радоваться жизни, но часто на это недостает сил. Дело в том, что зимой организм человека не получал необходимое количество витаминов и микроэлементов.



Часто зимой люди переходят на макаронные изделия, рис и сдобу. Хотя в этот период можно разнообразить свой рацион крупами, морепродуктами, замороженными фруктами и ягодами, овощами. Лучше всего производить их заготовку самому или покупать у людей, которые сами заготавливают фрукты и овощи в домашних условиях, потому что народные рецепты заготовки позволяют сохранить большую часть витаминов. Богаты витаминами и домашние соленья. Всегда нужно помнить, что витамины не накапливаются организмом, поэтому их поступление с пищей должно происходить каждый день, иначе весну вы встретите авитаминозом.

Авитаминоз – это патологическое состояние, возникающее при нехватке в человеческом организме одного или нескольких витаминов. Им страдают люди, которые подвергают себя строгим и изнурительным диетам или не имеют возможности обогатить свое питание. Нередко вегетарианцы не могут в полной мере заменить полезные вещества из продуктов, которые исключили из рациона, и потому страдают от нехватки полезных веществ. В особую группу риска входят люди с алкогольной и наркотической зависимостями, к примеру, отмечается связь между курением и низким содержанием витамина С. Авитаминоз возникает

и при длительном стрессе, так как организм задействует большое количество ресурсов для его ликвидации.

Обычно диагностирование дефицита витаминов в организме происходит на приеме у терапевта. Пациенты обращаются с набором симптомов, которые могут подходить под различные заболевания. Именно разнообразие симптомов указывает на то, что скорее всего организм не получает необходимое количество витаминов. Не стоит обманывать доктора и умалчивать о несбалансированном питании, так как это лишь отдалит врача от постановки правильного диагноза.

Если у вас появились сонливость, повышенная раздражительность, апатия и чувство постоянного недомогания, то вашему организму не хватает витаминов. Сюда можно добавить сухость кожи, ломкость волос, хрупкость ногтей, появление угрей и прыщей на лице и теле. Все эти симптомы могут проявиться, даже если в организме отсутствует только один-единственный витамин. Помимо перечисленных расстройств, авитаминоз может вызвать обострение многих хронических заболеваний.

Несмотря на то, что в наше время можно свободно купить продукты, содержащие витамины, весеннее недомогание ощущает подавляющее большинство людей.

Чтобы весной чувствовать прилив сил, можно дать простой и банальный совет: питайтесь правильно. Пусть ваше питание будет сбалансированным и богатым всеми необходимыми организму веществами – белками, жирами, углеводами, микроэлементами, витаминами. Ведь лучше предотвратить заболевание, чем потом тратить много сил и средств на его лечение.

Рано НУРМАТОВА, врач-диетолог поликлиники Медицинского отдела УВД Андижанской области.



**Ma'naviyat marshrutlari****ARXEOLGIK
TURIZM MASKANI**

Tarixda tanazzulga yuz tutgan shaharlar haqida ko'p o'qigan-miz. Aynan shunday shaharlar, xususan, Surxon zaminida ham ko'plab topiladi. Misol uchun, Fayoztepa, Zartepa, Qoratepa, Chingiztepa, Dalvarzintepadagi ibodatxonalar tanazzulga yuz tutgach, ularda hayot to'xtagani haqida manbalarda yoziladi.

Aytish kerakki, ushbu qadimiy maskanlarda o'z davrida buddaviy rohiblar jamoalari ham yashagan. Ular o'z dinlarini targ'ib qilishgan. Bu haqda 630-yilda Termizda bo'lgan xitoylik sayyoh, budda rohibi Syuan Szyan (600–664) tomonidan qoldirilgan qaydlarda ham aytilgan. U shaharda rohiblar yashaydigan o'ndan ortiq ibodatxonalar bor-

osori atiqalari, mashhur Amudaryo xazinasiga mansub tilla buyumlar, ilk o'rta asrlarga oid nodir so'g'd topilmalari alohida o'rin tutadi.

Sho'rchi tumanida joylashgan ushbu qadimiy tepalik Kushonlar davri madaniyati saqlanib qolgan noyob yodgorlik sifatida jahonga tanilgan. Bunda yaponiyalik taniqli qadimshunos olim Kyudzo Kato ning ham alohida xizmati bor. Ko'p

yaratilgan badiiy san'at namunalarini, badiiy metall buyumlar va hunarmandchilik namunalarini topishgan. Budda ibodatxonasining qoldiqlari, buddaning boshi, qimmatbaho fil suyagidan tayyorlangan shaxmat donalari, gipsdan ishlangan nafis haykallar, mis tangalar, ko'zgular, fil suyagidan tayyorlangan taqinchoqlar singari topilmalar bu makonning qadimdan madaniyat, san'at, tijorat rivojlangan hudud bo'lganini jonli hikoya qiladi, – deydi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, arxeolog Zebuniso Alimardonova.

Hududdagi 43-umumta'lim maktabiga professor Kyudzo Kato nomi berilib, buyuk qadimshunosning noyob topilmalari o'rin olgan muzey tashkil etilgan. Ayni paytda qadimshunos yashagan hovlini ta'mirlab, uning hayotini aks ettiruvchi uy-muzeyga aylantirish bo'yicha loyiha ishlari olib borilmoqda. Qolaversa, ushbu ta'lim muassasasi negizida Kyudzo Kato nomidagi yapon va ingliz tillarini chuqur o'rganishga ixtisoslashtirilgan «Yosh arxeologlar» maktabi ishlab turibdi.

Ha, Surxon zaminida ana shunday boy ilmiy merosga ega manzillar ko'p. Bugun ushbu manzillar arxeologik turizm maskaniga aylanib bormoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.
Surxondaryo viloyati.



ligini ta'kidlagan. Faqat VII asr oxirida arablar tomonidan Toxariston bosib olinishi natijasida buddaviy ibodatxonalar buzib tashlanib, rohiblarning hujralari chillaxonalarga aylantirilgan.

Qadimgi shahar xarobasi bo'lmish Dalvarzintepa qo'rg'oni-dan ham ko'plab buddaviylarga tegishli haykallar, sopol idishlar va Kushon podshohligiga tegishli tangalar topilgan. Ularning orasida qadimgi Baqtriyanning

yillar bu yerda arxeologik tadqiqot ishlarini olib borgan hassos arxeolog Kushon podshohligi davriga oid ko'plab osori atiqalarni topib, ularni ilmiy jihatdan o'rgandi. Buyuk o'tmishimizning nafis qirralarini jahonga keng tarannum etish va avlodlarga yetkazishga munosib hissa qo'shdi.

– Mahalliy va xorijlik qadimshunoslar Dalvarzintepada ko'plab arxeologik ashyoviy manbalar, jumladan, yuksak did bilan

**Ikkinchi iste'dod****MEHRIBON ONAM...**

Yurt osoyishtaligini ta'minlashdek sharafli vazifani sidqidildan ado etayotgan ichki ishlar organlari xodimlari orasida adabiyot va san'atga oshno bo'lganlari ham talaygina.

IIV Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi 1-batalyon 2-otryad safdor xodimi, safdor Jamshid Abdumalikov ana shunday ijodkor xodimlardan biri.


2000-yilda Farg'ona viloyatining Farg'ona tumani-da tug'ilgan Jamshid bolaligidan she'riyatga mehr qo'ydi. Bo'sh vaqtlarini xalqimizning ardoqli shoir va yozuvchilari asarlarini mutolaa qilishga bag'ishladi. Uning she'rlarini o'qirkansiz, samimiy satrlarda ona va Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat tuyg'ulari o'ziga xos tarzda ifodalanganiga guvoh bo'lasiz.

Dunyoning ishidan to'lsa paymonam,
Ko'zimdagi yoshdek titrasa tanam,
Sabrimdan o'zga qolmasa choram,
Men uchun har lahza mehri yagonam,
Dalda, taskin berib, ovutar onam.

Yig'lasam qayg'urib, kulsam kuladi,
Doim orzuimga qanot bo'ladi,
Ortimdan duolar qilib qoladi,
Onam bor, saroydan zo'r g'arib xonam,
Ko'ngli oppoq qordek beg'ubor onam.

Goh horib kelaman xizmatdan uyga,
Insonni solarkan hayot har ko'yga,
Shunday lahzalarda tolsam gar o'yga,
Mening intilganim – topganim orom,
Bor mehri ila quchgaydir onam.

Shirin gapirmadim, goh so'z saralab,
Goh ozor yetkazdim, qalbin yaralab,
Men sabab sochiga oqlar oralab,
Yuzlariga ajin tushib borsa ham,
Baxtimdan ko'kka uchgaydir onam.

**Ona tilim – jon-u dilim****«CHO'PCHAK» –
XAS-CHO'PMI YO?..**

Tilimizda bu so'z topishmoq, jumboq, ertak, hikoyat ma'nolarini ifodalaydi. «Momom qiziq cho'pchlarni aytib berardi». Shuningdek, «cho'pchak» ba'zan «yengil-yelpi gaplar», «xashaki gaplar», «yolg'on-yashiq» kabi ma'nolarni ham ifodalab keladi. «Bu cho'pchagingni boshqaga aytasan». Bu so'zning yana bir ma'nosi yo'qiladigan mayda quruq shox-shabba, xas-cho'pni bildiradi. «Yunus ota shitirlatmasdangina cho'pchak terib yuriydi» (Abdulla Qodiriy). Shuning uchun ham bu so'z sirtidan qaraganda, «cho'p», «cho'pcha» so'zlariga yaqinday tuyuladi.

Mulohaza qilish uchun boshqa taxminlarni ham ko'rib chiqsak. Oltoyda dostonlar va ertaklar «chörcök» («cho'recho'k») deb ataladi. Nima bo'lganda ham, «chörcök» bilan «cho'pchak» tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqin. Xakaslar tilida «chöpchi» degan so'z bo'lib, bu so'z «maslahatchi» degan ma'noni bildiradi. Bu tilda «chöp» so'zi «maslahat», «kengash», «tavsiya» ma'nolarini ifodalaydi. Demak, «cho'pchak» «maslahatcha», «kichik maslahat» ma'nosini ifodalashi ham mumkin. Chunki ertaklar o'quvchiga maslahat beradi. Lekin xuddi shu tilda «ertak» so'zi «chöchek» degan so'z bilan ifodalanadi.

«CHALG'AY»DA CHALG'IMANG

Biz qush qanotlarini yaxlit holda qanot deb ataymiz. Lekin qanotning ham qismlari bor: yon qism, uchki qism va yelkaga yopishgan qism. Odamlarda ham shunday: barmoq, kaft, tirsak, bilak kabi qo'l qismlari bor. Qush qanotlarining uch qismiga «chalg'ay» deb aytilgan.

Hozirgi tilimizda qanot uchini ifodalovchi yaxlit so'z yo'q, faqat «qush qanotining uchi» deb aytishimiz mumkin. Nimagadir qanot uchini ifoda qilgan «chalg'ay» so'zini ishlatmaymiz. Lekin bu so'z o'lmagan, haliyam iste'molda bor. Xalq tilida chopon yoqasining uch qismi hozir ham «chalg'ay» deb aytiladi. Umuman, bu so'zga bizda ehtiyoj bor. Chunki «chalg'ay» so'zining ma'nosini ifoda etuvchi boshqa ekvivalent so'z bizda yo'q.

«KICHIK» BILAN «KUCHUK»

«Kichik» so'zining ma'nosini izohlab o'tirishga hojat yo'q. Bu so'zning «kichig», «kichug», «kichiy» shakllari ham bor. Lazar Budagovning qiyosiy lug'atida «kichik» so'zi «kuchuk» shaklida berilgan. Shundan kelib chiqib, tilimizdagi itning bolasi ma'nosini ifoda etgan «kuchuk» so'zi ham «kichik» so'zidan kelib chiqqan deb taxmin qilish mumkin. Chunki itning kichigini «kuchuk» deb aytiladi.

Shu o'rinda yana bir mulohaza keldi. Bolaligimda kuchukni «kuch-kuch» deb chaqirganlarini ko'p eshitganman. Kuchukni shunday chaqirsak oldimizga kelardi. Ehtimol, it bolasini «kuch-kuch» deb chaqirishdan «kuchuk» so'zi paydo bo'lmaganmikin?

Oltoy dostonlarida «kichik» so'zi «kicho'» shaklida keladi. «Kicho' uli engirda qaytdi». «O'zbek tilining izohli lug'ati»da bu so'zlar tilimizga forsiydan kirib kelgan deb izohlangan. Lazar Budagov ularni turkiy-forsiy deb ko'rsatgan.

Xalqimiz orasida «O'zbekning kichigi – kuchugi» degan maqol bor. Eshitganga bu maqol qo'polroq tuyulsa ham, aslida juda samimiy, unda hurmat va izzat hissi yashiringan. Ya'ni kichiklar yoshi kattalarning hurmatini qilishi kerak, kichik turganda katta yoshdagi odam urinmasin, kichik kattaning qo'lidagi ishini tez olsin degan ma'no bor. Shuning uchun bizda kichiklar bu maqoldan sira xafa bo'lmaydilar.

Eshqobil SHUKURning
«Bobo so'z izidan» kitobidan olindi.

O'TGANLARNING OXIRATI OBOD BO'LSIN

Toshkent shahar IIBB Faxriylar kengashi iste'fodagi podpolkovnik

Temur BAYKULOVning
vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik izhor etadi.



1 марта – день рождения Зульфии

«ПРИШЛА ВЕСНА, СПРАШИВАЕТ О ТЕБЕ...»

БАҲОР КЕЛДИ СЕНИ СЎРОҚЛАБ

Салқин саҳарларда, бодом гулида,
Бинафша лабида, ерларда баҳор.
Қушларнинг парвози, елларнинг нози,
Баҳмал водийларда, қирларда баҳор.

Қанча севар эдинг, бағрим, баҳорни,
Ўрик гулларининг эдинг мафтунни.
Ҳар уйғонган куртак ҳаёт берган каби
Кўзларингга суртиб ўпардинг уни.

Мана қимматлигим, яна баҳор келиб,
Сени излаб юрди, кезди сарсари.
Қишининг ёқасидан тутиб сўради сени,
Ул ҳам ёш тўкди-ю, чекилди нари.

Сени излар экан, бўлиб шаббода,
Сен юрган боғларни қидириб чиқди.
Ёйиб кўрсатай деб хусн-кўркини,
Яшил қирғоқларни қидириб чиқди.

Топмай, сабри тугаб бўрон бўлди-ю,
Жарликларга олиб кетди бошини.
Фарҳод тоғларидан дарагинг излаб,
Сойларга қулатди тоғнинг тошини.

Сўнгра жило бўлиб кирди ётоғимга,
Хулқар ва Омоннинг ўпди юзидан.
Сингиб ёш куйдирган зафар ёноғимга
Секин хабар берди менга ўзидан.

Лекин ётоғимда сени тополмай,
Бир нуқтада қолди узоқ тикилиб.
Яна ел бўлди-ю, кезди сарсари,
Мендан сўрай кетди қалбимни тилиб:

«Қани мен келганда кулиб қаршилаб,
Кўшиғи мавжлаиб бир дарё оққан?
«Баҳтим борми дея», яккаш сўроқлаб
Мени шеърга ўраб суқланиб боққан?»

Ўрик гулларига тўнмайди нега,
Елда ҳилпиратиб жингала сочин?
Нега мен келтирган шўх нашидага
Пешвоз чиқмайди у ёзиб қулочин?»

Қани ўша кўйчи, хаёлчан йигит?
Нечун кўзингда ёш, туриб қолдинг лол.
Нечун қора либос, сочларингда оқ,
Нечун бу кўкдамда сен паришонҳол?»

Қандай жавоб айтай, лолдир тилларим,
Баридан тутдим-у, келдим қошингга.
У ҳам гаминг билан кезди афтода,
Боқиб туролмайин қабринг тошига.

Аламдан туюқиб дарахтга кўчди,
Куртакни уйғотиб сўйлади гамнок.
Сенинг ёдинг билан елиб беқарор,
Гуллар гунчасини этди чок-чок.

Гулу райҳонларнинг таралди атри,
Самони қоплади майин бир қўшиқ.
Бу қўшиқ нақадар ошно, яқин,
Нақадар ҳаётбахш, оташга тўлиқ.

Баҳорга бурканган сен севган элда,
Овозинг янгради жўшқин, забардаст.
Ўлмаган экансан, жоним, сен ҳаёт,
Мен ҳам ҳали сенсиз олмадим нафас.

Ҳижронинг қалбимда, созинг қўлимда,
Ҳаётни куйлайман, чекинар алам.
Тунлар тушимдасан, кундуз ёдимда,
Мен ҳаёт эканман, ҳаётсан сен ҳам!

Зульфия Исраилова (1915-1996)
– талантливая узбекская поэтесса, яркая художница, тонкий знаток души человека-труженика, смелый борец за равные права женщин Востока.



Ее поэзия держится на трех «китах» – узбекский язык, узбекский быт и самобытное поэтическое мастерство. В 1960-е годы Зульфия, одухотворенная встречами с прекрасными людьми, сочинила замечательные циклы стихотворений «Думы» и «Водопад». Написанная в 1970-е годы «Поэма огня и дороги», посвященная Айбеку, явилась вершиной ее лиро-эпической поэзии. А лирическая поэма «Кусочки памяти», которую она создала в 1990-х, стала ее лебединой песней, восславляющей счастье, свободу и независимость. Поэтесса не

приемлет счастье за пределами Отчизны, даже если там и в самом деле хорошо: «Ведь счастье живо лишь в стране родной».

Во многом благодаря ей в XX веке в отечественной литературе появилась так называемая женская литературная традиция. По сей день ее проникновенная лирика завоевывает сердца миллионов читателей во всем мире.

На ее огромном наследии выросло не одно поколение. Именем поэтессы названы улица в Ташкенте, а также Государственная премия, лауреатами которой становятся сотни юных дарований – наследниц ее неповторимого творчества.

Одним из лучших стихотворений Зульфии, посвященным памяти незабвенного друга и поэта Хамида Алимджана, называлась «Пришла весна, спрашивает о тебе...» После ухода из жизни Зульфии прошло более двадцати лет. Почитатели ее таланта, встречая каждую весну, тоже говорят ей, любимой поэтессе: «Пришла весна, спрашивает о тебе»...

«ЖЕНЩИНА – СИМВОЛ ДОБРА И РАЗВИТИЯ»

– под таким девизом в Самарканде прошел II Республиканский форум женщин-сотрудниц органов внутренних дел. В нем приняли участие около 200 представительниц прекрасного пола со всех уголков нашей страны.



Начало мероприятия ознаменовалось открытием интеллектуальной игры «Заковат». 18 команд боролись за победу, каждая стремилась показать высокий уровень знаний в разных областях. Параллельно проходил конкурс «Фидойи аёл ходима». Его участницы, наряду с выносливостью и хорошей физической подготовкой, продемонстрировали навыки стрельбы и разборки-сборки стрелкового оружия. В рамках форума были проведены турнир по шахматам и конкурс «Лучшая читающая сотрудница».

Во второй день состоялась церемония награждения победителей и участниц форума. В ней приняли участие заместитель министра внутренних дел генерал-майор Азизбек Икрамов, заместитель Премьер-министра Зулайхо Махкамова, член общества пропагандистов Республиканского центра духовности и просветительства Жамиля Шермухамедова и руководитель УВД Самаркандской области полковник Рахмат Маматов.

Соб. корр.



«UAE SWAT CHALLENGE-2023»: jamoamiz sovrindorlar qatorida



IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadlari xodimlaridan iborat jamoamiz joriy yilning 20–24-fevral kunlari Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan «UAE SWAT Challenge-2023» xalqaro musobaqasida ishtirok etdi.

38 ta davlatdan jami 57 ta maxsus jangovar bo‘linmalar qatnashgan ushbu nufuzli musobaqada jamoalar 5 ta shart, jumladan, «Binoni ishg‘ol qilish», «Hujum», «Ofitserni qutqarish», «Minora» va «Maxsus jangovar to‘siqlarni ishg‘ol etish» bo‘yicha bellashishdi. IIV terma jamoasi musobaqada

munosib ishtirok etib, beshinchi shartni a‘lo darajada uddalashdi. Shu tariqa jamoamiz birinchi o‘rinni egallab, oltin medallar shodasini qo‘lga kiritdi.

BAA politsiyasi bosh qo‘mondoni, general-mayor Abdulla Xalif Al-Merriy



terma jamoamizning munosib ishtiroki uchun minnatdorlik bildirib, sovrinli o‘rin olganligi bilan tabrikladi.

Musobaqa davomida vakillarimiz BAA maxsus operatsiyalarni bajaruvchi bo‘linmalari rahbarlari hamda boshqa davlatlardan tashrif buyurgan terma jamoa vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazishdi. Kelgusida hamkorlikni rivojlantirishga kelishib olindi.

Vatanimiz bayrog‘ini yuqoriga ko‘tarib, yurtimiz sha‘nini munosib himoya qilgan terma jamoa a‘zolari 26-fevral kuni yurtimizga qaytib keldi. G‘oliblar Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida IIV Alo-hida namunali ko‘rgazmali orkestrining musiqa sadolari ostida OAV vakillari, vazirlik mas‘ullari va ota-onalar tantanali ravishda kutib olindi.

O‘z muxbirimiz.

SEN BAHORNI SOG‘INMADINGMI?

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonog‘ingdan rang olgan dedim –
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo o‘zingni,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Uzoqlardan zalvorli tog‘lar,
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chog‘lar,
Vasling menga bo‘lmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham g‘arib,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?



Ungurlarda sakraydi ohu,
Na‘matakda sa‘va mittijon.
Qorliklardan sipqorilgan suv,
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?

Mana, bugun Navro‘zi olam,
Do‘stlarimga gullar tutarman.
Qayladasan, suyukli erkam...
Qo‘limda gul seni kutarman,
Umrim bo‘yi chorlab o‘tarman:
– Sen bahorni sog‘inmadingmi?



Qo‘shiq videoklipi.

Abdulla ORIPOV,
O‘zbekiston xalq shoiri.



MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas‘ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sarvar SOBIROV
Dinara SHAMUXAMEDOVA

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo‘yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami
20210000600447980001.

Bank kodi 01037.

ATB

«Qishloqqurilishbank»
Sergeli bank
xizmatlari ofisi.
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo‘l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«O‘zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.

Korxonada manzili:
Alisher Navoiy ko‘chasi 30-uy.

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Buyurtma №V-5422.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 50729 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko‘chasi 9-uy.